**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAVOIY VILOYATI HOKIMINING**

# QARORI

2025-yil 21-fevral 58-5-0-Q/25 Navoiy viloyati hokimligi

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-16-sonli Farmoni ijrosini ta’minlash haqida**

“O‘zbekiston-2030” strategiyasida va Oliy Majlis palatalarining majlislarida belgilangan vazifalarning ijrosini og‘ishmay tashkil etish, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risida hadli konvensiyasining Kioto protokoli va Parij bitimi doirasida mamlakatning global hamjamiyat oldida olgan majburiyatlarini bajarishda tarmoq va sohalarning uyg‘un “yashil transformatsiya”sini amalga oshirish, ularning raqrbatbardoshligi va resurs tejamkorligini ta’minlash, iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashish hamda aholining yashash sifatini yaxshilash va iqtisodiy o‘sishning yangi “yashil rivojlanish” modeliga o‘tishga qaratilgan ustuvor yo‘nalishlar ijrosini ta’minlash maqsadida,

**QAROR QILAMAN:**

**1.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-16-sonli Farmoni ijro uchun qabul qilinsin.

**2.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-16-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan:

2025-yilda **hududlarda qayta tiklanuvchi energiya manbalari quvvatlarini** joriy etish rejasi (19-ilova);

2025-yilda **bahor-kuz mavsumlarida** “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida **mahallalarda daraxtlarni ekish** boʻyicha rejasi (20-ilova);

2025-yilda bahor mavsumida **mahallalarda xonadonlar va ichki koʻchalarga gul hamda qalamchalarni ekish** boʻyicha rejasi (21-ilova) inobatga olinsin.

**3.** Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoni bilan “Oʻzbekiston-2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot”” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi (keyingi oʻrinlarda - Davlat dasturi) doirasida 1-13 ilovalarga muvofiq quyidagilar:

2025-yilga moʻljallangan **amaliy tadbirlar rejasi**;

2025-yilda ishlab chiqiladigan **normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari roʻyxati;**

2025-yilga moʻljallangan **maqsadli koʻrsatkichlar**;

2025-yilda **atrof-muhitni asrash yoʻnalishida vazirlik va idoralar tomonidan birinchi navbatda amalga oshirilishi zarur boʻlgan chora-tadbirlar** rejasi;

2025-yilda **atrof-muhitni asrash boʻyicha xalqaro hamkorlik yoʻnalishida chora-tadbirlarni amalga oshirish** rejasi;

Oʻzbekiston Respublikasida **“Yashil turizm” dasturini** amalga oshirish chora-tadbirlari rejasi tasdiqlansin.

**4. “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot”” yili**da mamlakat rivojlanishining ustuvor yondashuvlari etib quyidagilar:

**mahallalarning ekologik qiyofasi**ni yaxshilash, **koʻchalarda yashillik darajasi**ni oshirish, ekologik jihatdan qulay va farovon yashash muhitini shakllantirish;

**aholining salomatligini yaxshilash, ekologik turmush tarzini shakllantirish** va **inson salohiyatini roʻyobga chiqarish** uchun shart-sharoitlarni yaratish;

tabiiy resurslarni tejash va **ulardan oqilona foydalanish, ekologik barqarorlikni ta’minlash**;

**oʻsimlik va hayvonot dunyosini asrash**, koʻpaytirish va keyingi avlodga yetkazish hamda biologik xilma-xillikni saqlash;

**“yashil iqtisodiyot”** tamoyillarini keng joriy qilish, iqtisodiyotni iqlim oʻzgarishiga moslashtirishga qaratilgan loyihalarni barqaror moliyalashtirish;

respublika energobalansida qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish, shu jumladan, **davlat-xususiy sheriklik** asosida yirik **“yashil energiya”** stansiyalarini barpo etish, hududlarda **kichik va mikro gidroelektr stansiyalari** tarmogʻini kengaytirish, aholi xonadonlarida quyosh panellarini oʻrnatishni ragʻbatlantirish;

iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada zamonaviy energotejamkor texnologiyalarni keng qoʻllash orqali iqtisodiyotda **“uglerod izi”**ni kamaytirish;

ekologik barqarorlikka yoʻnaltirilgan **hududlar va tarmoqlararo muvofiqlashtiruv**ni ta’minlash.

Belgilansinki, ustuvor yondashuvlar **resurslardan tejamkorlik bilan foydalanishni koʻzda tutuvchi iqtisodiy rivojlanish modeliga** oʻtish orqali **2030-yilgacha** yalpi ichki mahsulotning yillik oʻsishini kamida **6 foiz** va uning hajmini **200 milliard AQSh dollari**ga yetkazish, inflyasiyani **5 foiz**, byudjet taqchilligini yalpi ichki mahsulotga nisbatan **3 foiz darajasi**da saqlash, **kambagʻallikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirish** maqsadlariga erishishning asosi etib belgilanganligi inobatga olinsin.

**5.** Viloyat hokimining oʻrinbosari (E.Kamolov), “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Navoiy viloyat hududiy filiali (B.Islomov) tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda bir oy muddatda:

2025-yilda **quyosh panellari** va geliokollektorlarni tuman va shaharlar kesimida oʻrnatish dasturiga takliflarni;

**2025-2026-yillar**da viloyat hududlarida **mikro gidroelektr stansiyalarini qurish dasturi**ga takliflarni Vazirlar Mahkamasiga va Energetika vazirligiga kiritsin.

**6. 2025-yilda** mahallalarning ekologik qiyofasini yaxshilash, koʻchalarda yashillik darajasini oshirish, ekologik jihatdan qulay va farovon yashash muhitini shakllantirish borasida:

aholi uchun barpo etilayotgan piyodalar va alohida velosiped yoʻlaklari boʻyida daraxtlar va oʻsimliklarni ekish orqali **“Soyali sayr koʻchalari”** tarmogʻi yaratilishi, sohil va daryo boʻylarida **sogʻlomlashtirish yoʻlaklari** qurilishi;

**yomgʻir va oqova suvlardan samarali foydalanish**, mahallalardagi daraxtlarni zamonaviy suv tejovchi texnologiyalar orqali sugʻorish tizimini joriy etish natijasida yashillik darajasi oshirilishi;

**“Yashil makon”** umummilliy loyihasi va **“Mening bogʻim”** loyihasi doirasida 14 mln tup daraxt hamda butalar ekilishi, “yashil bogʻlar” va “yashil jamoat parklari”da **quyosh panellari yordamida quvvatlanuvchi yoritgichlardan** foydalanilishi;

oʻrmon bilan qoplangan maydonlar **1,2 million gektarga** yetkazilishi va muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar **11,4 foizgacha** kengaytirilishi hamda ularning ekoturizm, koʻchatchilik va dorivorchilik yoʻnalishlaridagi **foydalanilmayotgan zaxiralari aniqlanib**, ularning imkoniyatlaridan toʻlik, foydalanilishi va aholining daromadlari oshirilishi;

jamoatchilik, ekofaollar va biznes vakillarining **tabiatni muhofaza qilish boʻyicha tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlash** akseleratsiya tizimi joriy etilishi ta’minlansin.

Mazkur bandning so‘zsiz, sifatli va o‘z vaqtida ijrosini ta’minlashga mas’ullar etib tegishincha viloyat hokimining o‘rinbosarlari (E.Kamolov, S.Hikmatov), Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi (R.Ergashev), Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi (A.Rashidov), Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Gʻ.Boboqulov), tuman (shahar) hokimlari belgilansin.

**7.** Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi (R.Ergashev), Raqamli texnologiyalar vazirligi hududiy shoʻbasi (A.Buronov) **2025-yil 1-iyunga qadar “Bir million yashil oila” umummilliy harakati** doirasida tegishli takliflarni, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligiga kiritsin.

**8.** Hududlarda atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha ishlarni samarali tashkil qilish, **hududiy davlat organlari va tashkilotlarining bu boradagi faoliyatini takomillashtirish** maqsadida:

viloyat hokimining o‘rinbosarlari (R.Sulaymonov, E.Kamolov), Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi bilan kelishgan holda **ekologiya** va **“yashil rivojlanish” masalalari boʻyicha konsultantlar** xalqaro moliya institutlari grant mablag‘larini jalb qilsin;

**2025-yil 1-sentyabrdan** boshlab tuman (shahar) darajasida **ekologik pasportlar** va **ekologik master rejalar** hamda **hududlarning** ekologik reytingini ishlab chiqish va keng **jamoatchilikka taqdim etish amaliyoti** joriy etilsin.

**9.** Viloyat hokimining o‘rinbosarlari (J.Xodjayev, E.Kamolov), O‘zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi (Gʻ.Aliyev):

bir hafta muddatda **tuman va shaharlar kesimida** 2025-yilda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida mahallalarda **daraxt koʻchatlarini hamda xonadonlar va ichki koʻchalarga gul va qalamchalarni ekish dasturlariga** takliflarni O‘zbekiston mahallalari uyushmasiga kiritilishini;

2025-yil bahor-kuz mavsumlarida respublikadagi barcha mahallalarning ichki ko‘chalari va aholi xonadonlarida 974,5 ming **tup mevali** va **manzarali** daraxtlar, **buta** ko‘chatlarini hamda **rayhon, gultoji, atirgul** va boshqa gullar, shuningdek, **qalamchalarni** ekish va parvarishlab borishni;

**“Obod xonadon”, “Obod kucha”** va **“Obod mahalla”** mezonlarini joriy etish maqsadida 2025-yilning 10-fevraldan 10-martga qadar har bir **xonadon, koʻcha** va **qabristonlarda** obodonlashtirish hamda ko‘kalamzorlashtirish ishlarini uyushqoqlik bilan tashkil etishni;

tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda Navro‘z bayramiga qadar mahallalar o‘rtasida **“Obod xonadon”, “Obod ko‘cha” va “Obod mahalla” ko‘rik-tanlovlari o‘tkazilishini** ta’minlasin.

**10.** Belgilab qo‘yilsinki:

Davlat dasturini **so‘zsiz, sifatli** va **to‘liq** amalga oshirish barcha darajadagi davlat organlari va tashkilotlarining **birinchi navbatdagi ustuvor vazifasi** hisoblanadi;

davlat organlari va tashkilotlari rahbarlari Davlat dasturida **har chorak kesimida** tegishli **yo‘nalish va hudud** bo‘yicha belgilangan **maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish**, nazarda tutilgan chora-tadbirlarni **samarali amalga oshirish** va zarur **normativ-huquqiy hujjatlar** loyihalarini **o‘z vaqtida va puxta ishlab chiqish** uchun shaxsan javobgar bo‘ladi.

**11.** Quyidagilar:

viloyat hokimining o‘rinbosari (E.Kamolov), viloyat hokimligi Axborot-tahlil guruhi (J.Bobomurodov) Davlat dasturi doirasida yo‘nalishlar bo‘yicha **amaliy tadbirlar rejalari bajarilishini, maqsadli ko‘rsatkichlarga erishilishini va tegishli normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ishlab chiqilishini** tizimli monitoring qilib borsin;

“Yuksalish” harakati hududiy bo‘linmasi (A.Jalilov)ga Davlat dasturining amalga oshirilishini, shu jumladan, **joylarga chiqib, jamoatchilik fikrini inobatga olgan holda** tanqidiy o‘rganib borsin va natijalari bo‘yicha **har oyda** viloyat hokimligiga axborot kiritib borish tavsiya etilsin;

viloyat korxona (tashkilot) rahbarlari, tuman (shahar) hokimliklari “**Yuksalish**” **harakatining** mazkur band ijrosi bo‘yicha faoliyatiga har tomonlama ko‘maklashib borsin.

**12.** Viloyat hokimining o‘rinbosarlari (R.Sulaymonov, E.Kamolov, E.Gʻafforov, S.Hikmatov, J.Xodjayev, S.Mirzayev, M.Mamamdiyarova):

**bir hafta muddatda** mazkur Farmon va u bilan tasdiqlangan Davlat dasturi ijrosini amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqib tasdiqlasin;

**har oy yakuni** bo‘yicha Davlat dasturining tegishli bandlari ijrosi yuzasidan ma’lumotlarni umumlashtirib, viloyat hokimligi Axborot-tahlil guruhiga kiritib borsin;

**13.** Viloyat hokimligi Axborot xizmati (Sh.Raubayeva), Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi viloyat boshqarmasi (D.Mamarajabov), viloyat Teleradiokompaniyasi (Gʻ.Sultonov), “Do‘stlik bayrog‘i” va “Znamya drujbi” gazetalari tahririyati (B.Umarov) boshqa ommaviy axborot vositalari bilan birgalikda muntazam ravishda:

Davlat dasturini amalga oshirish natijalari, **“yashil iqtisodiyot”**ga o‘tishdagi yutuqlarni aks ettiradigan tahliliy materiallarning ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan, internet tarmog‘ida va ijtimoiy tarmoqlarda keng sharhlab borilishini hamda uning mazmun-mohiyati jamoatchilikka tushuntirilishini;

Davlat dasturi doirasida **amalga oshirilayotgan barcha tadbirlarning borishi** hamda natijalari to‘g‘risidagi xolis va to‘liq ma’lumotlar aholiga tezkorlik bilan yetkazilishini ta’minlasin.

**14.** Ushbu qaror ijrosini samarali tashkil etishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib viloyat hokimi o‘rinbosarlari, tarkibiy bo‘linma va guruh rahbarlari, tashkilot va idoralar rahbarlari hamda tuman (shahar) hokimlari belgilansin.

**15.** Mazkur qaror ijrosining nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

**Viloyat hokimi** **N.Tursunov**

Navoiy viloyat hokimining
2025-yil 21-fevraldagi
58-5-0-Q/25-son qaroriga
1-ilova

**“Oʻzbekiston — 2030” strategiyasining Har bir insonga oʻz salohiyatini roʻyobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish yoʻnalishi boʻyicha 2025-yilga moʻljallangan**

**AMALIY TADBIRLAR REJASI**

| T/r | Vazifalar | Amaliy chora-tadbirlar | Ijro muddati | Moliyalashtirish manbalari | Hamijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|
| **HAR BIR INSONGA OʻZ SALOHIYATINI ROʻYOBGA CHIQARISH UCHUN MUNOSIB SHAROITLAR YARATISH** | | | | | |
| **1-maqsad: Maktabgacha ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda bolalarning toʻliq qamrovini ta’minlash** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul** — Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi (R. Hayitova)* | | | | | |
| 1 | **1-band:** Maktabgacha ta’lim tashkilotlari mavjud boʻlmagan olis va chekka hududlarda maktabgacha ta’limning muqobil shakllarini tashkil etish. | **1.** Maktabgacha ta’lim tashkilotlari mavjud boʻlmagan olis va chekka hududlardagi mahallalar roʻyxatini shakllantirish.<br>**2.** Shakllantirilgan roʻyxatdagi mahallalarda maktabgacha ta’limning muqobil shakli boʻlgan mobil guruhlar faoliyatini yoʻlga qoʻyish.<br>Bunda mobil guruhlar uchun maxsus jihozlangan avtobuslar ajratish hamda joylarda oʻyin maydonchalarini tashkil etish. | 2025-yil aprel<br><br>2025-yil may | Xalqaro moliya institutlari, xorijiy va donor tashkilotlarning grantlari va mablagʻlari | Viloyat hokimining oʻrinbosari **J.Xodjayev**, Tuman (shahar) hokimlari |
| **2-maqsad: Umumiy oʻrta ta’lim tizimida “Ta’lim uchun qulay muhit” dasturini amalga oshirish** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul** — Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi (R.Hayitova)* | | | | | |
| 2 | **2-band:** Uyda ta’lim olayotgan oʻquvchilar uchun qulayliklar yaratish. | Uyda ta’lim olayotgan oʻquvchilar uchun ta’limning mazkur yoʻnalishi boʻyicha elektron va video darsliklar yaratish hamda ularga mustaqil | 2025-yil davomida | Davlat budjetidan ajratilgan mablagʻlar | Viloyat hokimining oʻrinbosari **J.Xodjayev**, Iqtisodiyot va moliya |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | shug‘ullanishlari uchun qulay muhit va sharoitlar yaratish. Jumladan:<br>o‘quvchilarga mobil qurilmalar orqali foydalanish uchun maxsus moslashtirilgan platformani yaratish;<br>elektron va video darsliklarni turli yoshdagi o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirish;<br>o‘quvchilarga pedagogik yordam ko‘rsatish imkoni mavjud bo‘lgan **“onlayn mentorlik”** tizimini joriy etish. | | doirasida | boshqarmasi,<br>Tuman (shahar) hokimlari |
| 3 | **3-band:**<br>**“Raqamli kutubxona”** tizimining samaradorligini oshirish. | **“Raqamli kutubxona”** tizimining kitoblarga buyurtma berish modulini joriy etish. | 2025-yil iyul | Davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lar doirasida | Viloyat hokimining o‘rinbosari **J.Xodjayev**,<br>Viloyat hokimining maslahatchisi **X.Farmonov**,<br>Raqamli texnologiyalar vazirligi hududiy shu’basi |
| 4 | **4-band:**<br>Umumta’lim maktablarini **zamonaviy o‘quv va sport anjomlari** bilan ta’minlash. | **1.** Umumta’lim maktablarini **tabiiy fanlar laboratoriya jihozlari, sport jihozlari** va **milliy musiqa cholg‘u asboblari** bilan ta’minlash bo‘yicha manzilli dasturni tasdiqlash.<br>**2.** Tasdiqlangan dasturga asosan **tabiiy fanlar laboratoriya jihozlari, sport jihozlari** va **milliy musiqa cholg‘u asboblari**ni belgilangan tartibda xarid qilish. | 2025-yil aprel<br><br>2025-yil noyabr | Davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lar doirasida | Viloyat hokimining o‘rinbosari **J.Xodjayev**,<br>Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi,<br>Tuman (shahar) hokimlari |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **3-maqsad: Umumiy oʻrta taʼlim tizimini yangi bosqichga olib chiqish** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy masʼul*** *— Maktabgacha va maktab taʼlimi boshqarmasi (R.Hayitova)* | | | | | |
| 5 | **6-band:**<br>Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida bilimni baholashning yangi tartibi joriy etilgan maktablar sonini oshirish. | **1.** 2024/2025 oʻquv yili yakunida **60 ta** umumtaʼlim maktablarida joriy etilgan bilimni baholashning yangi tartibi samaradorligini tahlil qilish.<br>**2.** Tahlillar natijasida mazkur tartibni yanada takomillashtirish hamda 2025 – 2026-oʻquv yilidan boshlab yangi baholash tizimi joriy etiladigan maktablar sonini **120 taga** yetkazish. | 2025-yil iyun<br><br>2025-yil sentabr | Davlat budjetidan ajratilgan mablagʻlar doirasida | Viloyat hokimining oʻrinbosari **J.Xodjayev** |
| 6 | **8-band:**<br>Umumiy oʻrta taʼlim muassasalariga **500 nafar** xorijiy mutaxassislarni jalb etish. | **1.** Rekruting tashkilotlari hamda vazirlikning rasmiy ijtimoiy sahifalari orqali xorijiy mutaxassislar uchun eʼlonlar berish.<br>**2.** Kelib tushgan murojaatlarni oʻrganib chiqish, saralash va suhbatlar tashkil etish. | 2025-yil avgust | Davlat budjetidan ajratilgan mablagʻlar doirasida | Viloyat hokimining oʻrinbosari **J.Xodjayev,**<br>Ichki ishlar boshqarmasi**,** tuman (shahar) hokimliklari |
| ***Ijro uchun asosiy masʼul*** *— Savdo-sanoat palatasi hududiy boshqarmasi (D. Shakarov)* | | | | | |
| 7 | **14-band:**<br>Mahalliy va xorijiy mehnat bozori talablarini inobatga olgan holda har bir hududda texnikumlarda **“dual taʼlim” dasturi**ni joriy qilish. | Bunda:<br>oʻquv jarayoniga **xorijiy hamkorlarni** jalb qilib, oʻqishning muayyan davrini **chet el mamlakatlaridagi taʼlim tashkilotlari** va **salohiyatli** ish beruvchilarda tashkil etish;<br>oʻqishning Oʻzbekistondagi davrida oʻquvchilarni **davlat granti** va toʻlov-kontrakt asosida **kasb va xorijiy tillarga intensiv** ravishda oʻrgatish | 2025/2026-oʻquv yilidan | Hisob-kitoblarga koʻra | Viloyat hokimining oʻrinbosari **J.Xodjayev,**<br>Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi,<br>Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi,<br>Tuman (shahar) hokimlari |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | hamda ular tegishli **sertifikatlarni olishi uchun** zarur sharoitlarni yaratish;<br>dasturni muvaffaqiyatli bitirgan kadrlarning xorijiy va mahalliy mehnat bozorlarida **yuqori haq toʻlanadigan ish oʻrinlariga joylashtirilishiga** koʻmaklashish nazarda tutiladi. | | | |
| **12-maqsad: Barcha yoʻnalishlarda innovatsion faoliyatni keng joriy etish, ilmiy tadqiqotlarni va innovatsion tashabbuslarni qoʻllab-quvvatlash** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul*** *— Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi (F.Toʻxtayev)* | | | | | |
| 8 | **23-band:**<br>Respublika hududlarida akseleratsiya va inkubatsiya dasturlarini tashkil etish. | 1. Respublika hududlarida tashkil etilgan Yoshlar texnoparklarida akseleratsiya va inkubatsiya dasturlarini tashkil etish.<br>2. Tashkil etilgan akseleratsiya va inkubatsiya dasturlariga 120 ta startap loyihalarni jalb etish va loyiha tashabbuskorlarini oʻqitish.<br>3. Dasturlarni muvaffaqiyatli yakunlangan loyiha tashabbuskorlarining startap loyihalarini Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan tashkil etiladigan startap loyihalar | 2025-yil aprel<br><br>2025-yil iyun<br><br>2025-yil dekabr | Davlat budjetidan ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida ajratiladigan mablagʻlar hisobidan | Viloyat hokimining oʻrinbosari **J.Xodjayev** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | tanlovlariga yoʻnaltirish. | | | |
| **13-maqsad: Aholining oʻrtacha umr davomiyligini oshirish** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul*** *— Sogʻliqni saqlash boshqarmasi (N.Safoyev)* | | | | | |
| 9 | **24-band:** Aholi oʻrtasida eng koʻp uchraydigan kasalliklarni barvaqt aniqlash va ular bilan kasallanish holatlarini keskin kamaytirish. | **1.** Profilaktik koʻriklar jadvalini tasdiqlash.<br>**2.** 18 — 40 yoshli 481 ming nafar aholini profilaktik koʻrikdan oʻtkazish.<br>**3.** 338,9 ming nafar 40 va undan katta yoshdagi aholi orasida eng koʻp uchraydigan yurak-qon tomir, qandli diabet, oʻpkaning surunkali obstruktiv kasalliklari xavfini aniqlash maqsadida profilaktik koʻriklarni oʻtkazish.<br>**4.** Kasallik aniqlangan fuqarolarni individual sogʻlomlashtirish choralarini koʻrish. | 2025-yil fevraldan boshlab tarmoq rejasi asosida | Davlat budjetidan ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablagʻlar | Viloyat hokimining oʻrinbosari **J.Xodjayev** |
| **15-maqsad: Bolalar oʻrtasidagi irsiy kasalliklarning oldini olish va davolash samaradorligini oshirish** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul*** *— Sogʻliqni saqlash boshqarmasi (N.Safoyev)* | | | | | |
| 10 | **29-band:** Irsiy kasalliklar bilan kasallangan bolalarni davolash ishlarini tashkillashtirish. | Irsiy kasalliklar bilan kasallangan bolalarni dori vositalari, tibbiy buyumlar va shifobaxsh ozuqalar bilan toʻliq ta’minlash. | 2025-yil fevraldan boshlab yil davomida | Davlat budjetidan ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablagʻlar doirasida | Viloyat hokimining oʻrinbosari **J.Xodjayev** |
| **17-maqsad: Onkologik kasalliklarni erta aniqlash va oʻlim koʻrsatkichini kamaytirish** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul*** *— Sogʻliqni saqlash boshqarmasi (N.Safoyev)* | | | | | |
| 11 | **32-band:** Xavf guruhiga mansub boʻlgan aholini | **1.** Markaziy poliklinikalarda Onkonazorat xonasi uchun ichki imkoniyatlardan kelib chiqqan holda | 2025-yil fevral | Davlat budjetidan ushbu | Viloyat hokimining oʻrinbosari **J.Xodjayev** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | onkologik kasalliklar boʻyicha skrining tekshiruvlaridan oʻtkazish. | alohida akusher-ginekolog shifokori shtatini ajratish.<br>**2.** Ayollarni tibbiy koʻrikka taklif qilish tizimini yaratish va elektron bazasini (roʻyxatni) shakllantirish.<br>**3.** Yiliga **69,4 ming** nafar ayolni bachadon boʻyni saratoni va **82,3 ming** nafar ayolni koʻkrak bezi saratonini erta aniqlash boʻyicha maqsadli skriningdan oʻtkazish. | 2025-yil yakuniga qadar<br><br>Doimiy | maqsadlar uchun ajratilgan mablagʻlar | |
| **20-maqsad: Aholi orasida toʻgʻri ovqatlanish va sogʻlom turmush tarzini shakllantirish** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas'ul*** *— Sogʻliqni saqlash boshqarmasi (N.Safoyev)* | | | | | |
| 12 | **35-band:**<br>Aholi orasida toʻgʻri ovqatlanish va sogʻlom turmush tarzini shakllantirish boʻyicha targʻibotni kuchaytirish. | Yoshi, tana tuzilishi, turmush tarzi va kasalliklarga moyilligidan kelib chiqib, kattalar va keksalar uchun toʻgʻri ovqatlanish, sogʻlomlashtirish mashqlari va gigiyena qoidalarini mahallalarda targʻib qilish. | 2025-yil fevral oyidan boshlab yil davomida | | Viloyat hokimining oʻrinbosari **J.Xodjayev,** Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasi, Tuman (shahar) hokimliklari |
| **25-maqsad: Xotin-qizlarni qoʻllab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish va gender tenglikni ta'minlash** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas'ul*** *— Oila va xotin-qizlar boshqarmasi (M.Mamadiyarova)* | | | | | |
| 13 | **41-band:**<br>Xotin-qizlarni mehnat bozorida raqobatbardosh kasb-hunar turlariga oʻqitish orqali bandligini ta'minlashga koʻmaklashish hamda | **1.** Xotin-qizlarni kasb-hunar va tadbirkorlik koʻnikmalariga oʻqitish grafigini ishlab chiqish.<br>**2.** Ishsiz va daromad topish istagidagi xotin-qizlarni oʻquvlarga jalb qilish.<br>**3.** Ishlash istagidagi xotin-qizlar uchun boʻsh ish oʻrinlari mehnat yarmarkalarini tashkil etish. | 2025-yil fevral<br><br>Tasdiqlangan grafik asosida<br><br>Har chorakda | Ijrochilar mablagʻlari | Viloyat hokimining oʻrinbosari **M.Mamadiyarova,** Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi, Savdo-sanoat palatasi viloyat boshqarmasi, |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | ular o‘rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida 2025 yilda:<br>**7 585 nafar** xotin-qizlarni kasb-hunarga o‘qitish;<br>**14 820 nafar** xotin-qizlarga ishga joylashishga ko‘maklashish;<br>**7 032 nafar** xotin-qizlarni tadbirkorlikka o‘qitish choralarini ko‘rish. | | | | Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi,<br>Tuman (shahar) hokimliklari |
| 14 | **43-band:**<br>Ta’lim muassasalarida, mahallalarda, mehnat jamoalarida **“Mas’uliyatli ota-onalik”** loyihasini amalga oshirish. | **1.** “Mas’uliyatli ota-onalik” mezonlari bo‘yicha **trening dasturi** va trenerlar uchun **o‘quv-metodik qo‘llanma** ishlab chiqish.<br>**2.** Mavzuga aloqador ma’ruza matnlari, taqdimotlar, tarqatma materiallar, ko‘rgazmali targ‘ibot vositalari, videoroliklar, buklet va flayerlar tayyorlash.<br>**3.** “Mas’uliyatli ota-onalik” veb-sayti va mobil ilovasini yaratish. | 2025-yil aprel<br><br>2025-yil may<br><br>2025-yil avgust | Ijrochilar mablag‘lari | Viloyat hokimining o‘rinbosari **M.Mamadiyarova,**<br>Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi,<br>Sog‘liqni saqlash boshqarmasi,<br>Raqamli texnologiyalar vazirligi hududiy sho‘basi,<br>Tuman (shahar) hokimliklari |
| 15 | **45-band:**<br>Xotin-qizlarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, innovatsiyalar borasidagi | **1.** Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, innovatsiyalar borasidagi iqtidori va qiziqishi bo‘lgan ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalardagi xotin-qizlarini aniqlash va ro‘yxatini | 2025-yil aprel | Ijrochilar mablag‘lari | Viloyat hokimining o‘rinbosari **M.Mamadiyarova,**<br>Raqamli texnologiyalar vazirligi *hududiy* |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | qiziqishlarini oshirish, **“Bir million dasturchi”** loyihasiga jalb etish, IT park rezidentlari bo‘lishi uchun imkoniyatlar yaratish. | shakllantirish.<br>**2.** 437 nafar iqtidori va qiziqishi bo‘lgan ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalardagi xotin-qizlarni axborot texnologiyalari yo‘nalishidagi o‘quv kurslariga jalb etish. | | | *sho‘basi*,<br>Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi,<br>Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi,<br>tuman (shahar) hokimliklari |
| 16 | **46-band:**<br>Biznesini kengaytirish istagidagi xotin-qizlarning tadbirkorlik loyihalarini qo‘llab-quvvatlash. | **1.** Biznesini kengaytirish istagidagi xotin-qizlarning tadbirkorlik loyihalarini o‘rganib chiqish.<br>**2.** Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan 10 nafardan lider, yirik tadbirkor xotin-qizlar imkoniyatlarini o‘rganish va tadbirkorlik g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash.<br>**3.** Lider, yirik tadbirkor xotin-qizlar loyihalarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan kredit mablag‘larini ajratishga ko‘maklashish. | 2025-yil aprel<br><br>2025-yil davomida<br><br>2025-yil davomida | Tijorat banklari kredit mablag‘lari | Viloyat hokimining o‘rinbosari **M.Mamadiyarova,**<br>Markaziy bank,<br>Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik boqarmasi,<br>Savdo-sanoat palatasi hududiy boshqarmasi,<br>Tuman (shahar) hokimliklari |
| **27-maqsad: Mamlakatda kambag‘allik darajasini qisqartirish** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul*** *— Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi (L.Xayrullayev)* | | | | | |
| 17 | **51-band:**<br>Eng og‘ir ahvoldagi 1024 ta mahallalarning infratuzilmasini yaxshilash dasturini amalga oshirish. | **1.** Tanlab olingan mahallalarda tuman (shahar) hokimligi, mahalla fuqarolar yig‘ini bilan mahallalarda kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan uch tomonlama shartnoma tuzish.<br>**2.** Mahallalarning infratuzilmasi holatini (elektr energiyasi, suv, gaz, | 2025-yil davomida | Respublika budjeti mablag‘lari hisobidan | Viloyat hokimining o‘rinbosarlari **R.Sulaymonov, E.Kamolov**,<br>Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi,<br>Markaziy bank,<br>O‘zbekiston mahallalari |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | sug'orish tizimi, internet, ichki yo'llar va boshqa) yaxshilash. | | | uyushmasi viloyat boshqarmasi, Tuman (shahar) hokimliklari |
| **28-maqsad: Aholini daromadli mehnat bilan band qilish, ijtimoiy sug'urta tizimini takomillashtirish** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas'ul*** *— Kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi (L.Xayrullayev)* | | | | | |
| 18 | **52-band:** Aholini mehnat faoliyatiga jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali ishsizlarni doimiy ish o'rinlariga **ishga joylashtirishga** ko'maklashish. | Bandlikka ko'maklashish borasida ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini va natijadorligini oshirish orqali **2,2 ming** nafar aholini bo'sh (vakant) va yangi ish o'rinlariga joylashtirish choralarini ko'rish. | 2025-yil davomida | – | Viloyat hokimining o'rinbosari **R.Sulaymonov**, Tuman (shahar) hokimliklari |
| **29-maqsad: Fuqarolarni davlat hisobidan kasb-hunarga o'qitish, ularning zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish bo'yicha kasbiy ko'nikma va malakalarini rivojlantirish** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas'ul*** *— Kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi (L.Xayrullayev)* | | | | | |
| 19 | **54-band:** Kasbiy ko'nikmalar markazlarining o'qituvchilarini **xalqaro standartlar asosida malakasini oshirish.** | **1.** Malaka oshiradigan o'qituvchilar ro'yxatini shakllantirish.<br>**2. 150 nafar** kasbiy ko'nikmalar markazi o'qituvchilarini xalqaro standartlar asosida malakasini oshirish. | 2025-yil davomida | Xalqaro moliya jamg'armalari | Viloyat hokimining o'rinbosari **R.Sulaymonov**, Tuman (shahar) hokimliklari |
| **32-maqsad: Yoshlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va ishsizlik darajasini kamaytirish** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas'ul*** *— Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi (U.Baxromov)* | | | | | |
| 20 | **60-band:** Tuman (shahar) hokimliklari, sektor rahbarlari mahallalarda istiqomat qilayotgan va | **1.** Sektor rahbarlari va yoshlar uchrashuvlari bo'yicha chora-tadbirlar rejasini tasdiqlash.<br>**2.** Rahbar va yoshlar uchrashuvlarini yuqori saviyada tashkil etish. | 2025-yil fevraldan boshlab yil davomida | Ijrochilar mablag'lari | Viloyat hokimining o'rinbosari **J.Xodjayev**, Tuman (shahar) hokimliklari |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | xorijdagi yoshlar bilan muloqot qilish, ularning muammo va takliflarini oʻrganish hamda ularning muammolarini hal etish choralarini koʻrish. | **3.** Uchrashuvda bildirilgan muammo va takliflarni hal etish choralarini koʻrish. | | | |
| 21 | **61-band:** Yoshlarning bandligini ta’minlash. | **1.** Hududlarda ishsiz yoshlar bandligini ta’minlash dasturlarini ishlab chiqish.<br>**2.** Yoshlar bandligini ta’minlash dasturlari asosida ularga subsidiya, kredit, yer ajratish hamda boʻsh ish oʻrinlariga joylashtirish orqali bandligini ta’minlash choralarini koʻrish. | 2025-yil mart<br><br>2025-yil mart oyi yakuniga qadar | Davlat byudjetidan ajratilgan mablagʻlar doirasida | Viloyat hokimining oʻrinbosari **J.Xodjayev**, Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi, Qishloq xoʻjaligi boshqarmasi, Tuman (shahar) hokimliklari |
| **33-maqsad: Yoshlar oʻrtasida IT sohasini yanada ommalashtirish hamda sohada xizmatlar eksportini oshirish** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul*** *— Raqamli texnologiyalar vazirligi hududiy shu’basi (A. Buronov)* | | | | | |
| 22 | **62-band:** “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida yoshlarni nufuzli xalqaro kompaniyalar talablariga mos dasturlar asosida tayyorlash. | **1.** “Bir million dasturchi” loyihasining navbatdagi bosqichi doirasida xorijiy nufuzli ta’lim platformalarida onlayn oʻquv kurslarda tahsil olish imkoniyatini yaratish.<br>**2.** Platforma imkoniyatlari va undan samarali foydalanish boʻyicha hududlardagi ta’lim tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda keng targʻibot ishlarini amalga oshirish.<br>**3.** Loyiha doirasida 6 ming nafar | 2025-yil may<br><br>2025-yil dekabr | – | Viloyat hokimining oʻrinbosari **J.Xodjayev**, Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi, Yoshlar ishlari agentligi viloyat oshqarmasi, Tuman (shahar) |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | yoshlarni onlayn oʻquv kurslarda taʼlim olishlarini taʼminlash.<br>**4.** “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida eng yaxshi natija koʻrsatgan yoshlar va ishtirokchilarni munosib ragʻbatlantirib borish. | | | hokimliklari |
| **34-maqsad: Jismoniy tarbiya va sport bilan shugʻullanadigan yoshlar qamrovini kengaytirish** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy masʼul*** *— Sport boshqarmasi (J.Murtozayev)* | | | | | |
| 23 | **64-band:**<br>Sogʻlom turmush tarzini rivojlantirish maqsadida ommaviy sport musobaqalarida aholi qamrovini kengaytirish. | **1.** Ommaviy sport musobaqalari qamrovini 384 ming nafarga yetkazish.<br>Bunda:<br>mahallalarda istiqomat qiluvchi aholi, xususan yoshlarga tarqatiladigan ommaviy sportni keng targʻib qiluvchi buklet namunalarini ishlab chiqish va tarqatish;<br>“Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida ommaviy sport musobaqalarini tashkil etish va oʻtkazish boʻyicha tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikni rivojlantirish;<br>ommaviy sport musobaqalarini mahalla yoshlari, maktab, kasbiy va oliy taʼlim muassasalari oʻquvchi va talabalari, davlat tashkilotlari xodimlari hamda 30 yoshdan katta aholi oʻrtasida tashkil qilish.<br>**2.** Aholining 11 ta yosh toifalari boʻyicha barcha hududlarda har yili | 2025-yil aprel – dekabr<br><br>2025-yil davomida | Sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasida nazarda tutilgan mablagʻlar hamda ijrochilar mablagʻlari | Viloyat hokimining oʻrinbosari **J.Xodjayev**,<br>Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi,<br>Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi,<br>Maktabgacha va maktab taʼlimi boshqarmasi,<br>Tuman (shahar) hokimliklari |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | jismoniy tayyorgarlik sinovlarini o‘tkazish. | | | |

Navoiy viloyat hokimining
2025-yil 21-fevraldagi
58-5-0-Q/25-son qaroriga
2-ilova

**“Oʻzbekiston — 2030” strategiyasining Har bir insonga oʻz salohiyatini roʻyobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish yoʻnalishi boʻyicha 2025-yilda ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalariga takliflar ishlab chiqish boʻyicha**

**chora-tadbirlar rejasi**

| T/r | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | Normativ-huquqiy hujjat loyihasida nazarda tutilgan chora-tadbirlar | Ijro muddati | Hamijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| **HAR BIR INSONGA OʻZ SALOHIYATINI ROʻYOBGA CHIQARISH UCHUN MUNOSIB SHAROITLAR YARATISH** | | | | |
| **25-maqsad: Xotin-qizlarni qoʻllab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish va gender tenglikni ta’minlash** | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul** — Oila va xotin-qizlar boshqarmasi (M.Mamadiyarova)* | | | | |
| 1. | **6-band:**<br>Xotin-qizlarning bandligini ta’minlash va salomatligini mustahkamlash markazlarini tashkil etish tizimini yanada takomillashtirish boʻyicha normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga quyidagilarni nazarda tutuvchi oʻzgartish va qoʻshimchalar kiritish:<br>xotin-qizlarning bandligini ta’minlash va salomatligini mustahkamlash markazlarini tashkil etish uchun mahallalar hududidan 300 kvadrat metrgacha boʻsh yer maydonlarini doimiy foydalanish huquqi asosida yoki boʻsh turgan davlat mulki ob’yektlarini operativ boshqaruv huquqi bilan viloyat oila va xotin-qizlar boshqarmalariga ajratish;<br>markazlar faoliyatini qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan mablagʻlar hisobidan hamda davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida yoki tashabbuskor tadbirkorlarning boʻsh binolarida tashkil etish;<br>markazlarni tadbirkorlik sub’yektlari binolarida ochishga rozilik berish. Bunda markazlarni oʻz binosida tashkil etish istagi boʻlgan tadbirkorlarga mazkur markazlarda oila va xotin-qizlar boʻlimlari tavsiyasi | 2025-yil avgust | Viloyat hokimining oʻrinbosari **M.Mamadiyarova**,<br>Adliya boshqarmasi,<br>Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi,<br>Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat boshqarmasi,<br>Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi,<br>Tuman (shahar) hokimliklari |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | asosida xotin-qizlarni kasb-hunarga oʻqitishga ruxsat berish, shuningdek, ularga Bandlikka koʻmaklashish davlat jamgʻarmasi hisobidan grantlar ajratish imkoniyatini yaratish. | | |

***Izohlar:***

*Dasturda nazarda tutilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun qabul qilinadigan hujjatlar shakli zaruratga qarab oʻzgartirilishi, boshqa bandlardagi hujjatlar bilan birlashtirilishi yoki bir necha turdagi hujjatlarga boʻlinishi mumkin.*

*Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish jarayonida mutasaddi vazirlik va idoralarning takliflari asosida Dasturda belgilangan chora-tadbirlarning mazmuniga mos keladigan boshqa masalalar ham nazarda tutiladi.*

Navoiy viloyat hokimining
2025-yil 21-fevraldagi
58-5-0-Q/25-son qaroriga
3-ilova

**“Oʻzbekiston — 2030” strategiyasining Har bir insonga oʻz salohiyatini roʻyobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish yoʻnalishi boʻyicha 2025 yilga moʻljallangan**

**MAQSADLI KOʻRSATKICHLAR**

| T/r | Maqsadli koʻrsatkich | Oʻlchov birligi | 2025-yil | I chorak | II chorak | III chorak | IV chorak | Mas’ullar |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **1.4. Yoshlarga oid davlat siyosati va sport yoʻnalishlaridagi islohotlar** | | | | | | | | |
| **34-maqsad: Jismoniy tarbiya va sport bilan shugʻullanadigan yoshlar qamrovini kengaytirish** | | | | | | | | |
| 1. | **71-band:** Sogʻlom turmush tarzini rivojlantirish maqsadida, ommaviy sport musobaqalarida aholi qamrovi. | ming nafar | **384** | 89 | 98 | 99 | 98 | Viloyat hokimining oʻrinbosari **J.Xodjayev**, Sport boshqarmasi, Yoshlar ishlari boshqarmasi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi, Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi |
| 2. | **72-band:** Jismoniy tarbiya va sport bilan shugʻullanishga jalb qilingan aholi ulushi. | foiz | **35** | 8 | 17 | 26 | 35 | |
| 3. | **73-band:** Mahallalarda sport maydonchalarini barpo etish. | ta | **21** | – | – | 8 | 13 | |

Navoiy viloyat hokimining
2025-yil 21-fevraldagi
58-5-0-Q/25-son qaroriga
4-ilova

**“O‘zbekiston — 2030” strategiyasining Barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minlash yo‘nalishi bo‘yicha 2025-yilga mo‘ljallangan**

**AMALIY TADBIRLAR REJASI**

| T/r | Vazifa | Amaliy chora-tadbirlar | Ijro muddati | Moliyalashtirish manbalari | Hamijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|
| **II. BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI FAROVONLIGINI TA’MINLASH** | | | | | |
| **48-maqsad: Sanoatning “drayver” sohalarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to‘liq ishga solish** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul*** *– Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligining hududiy boshqarmasi (A.Hayitov)* | | | | | |
| 1. | **17-band:** Hududlarda mavjud mineral xomashyo resurslaridan samarali foydalanish maqsadida istiqbolli maydonlarda qimmatbaho, rangli va noyob metallar bo‘yicha geologiya-qidiruv ishlarini o‘tkazish. | Tadbirkorlik sub’yektlariga qimmatbaho, rangli, noyob metallar hamda noruda kon va uchastkalarini (jami 60 ta) shaffof mexanizmlar asosida onlayn auksion orqali taklif etish. | 2025-yil davomida | Xorijiy va mahalliy investisiyalar | Viloyat hokimining o‘rinbosarlari **R.Sulaymonov, E.G‘afforov**, Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat boshqarmasi, Tuman (shahar) hokimliklari |
| **49-maqsad: Mamlakatimizning investisiyaviy jozibadorligini yanada oshirish va qimmatli qog‘ozlar bozorini jadal rivojlantirish** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul*** *— Investisiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi (E.G‘afforov)* | | | | | |
| 2. | **19-band:** 2025 yilda 1,4 mlrd dollar xorijiy investisiyalarni jalb | **1.** Loyihalarni amalga oshirish holati va investisiyalarni o‘zlashtirish rejasini bajarish bo‘yicha oylik monitoring olib borish. | 2025-yil davomida | – | Viloyat hokimining o‘rinbosari **E.G‘afforov**, |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | qilish. | **2.** Loyihalarni amalga oshirishning barcha jarayonlarida vazirliklar, idoralar, tijorat banklari va hududlar rahbarlari faoliyatini muvofiqlashtirib borish.<br>**3.** Loyihalar doirasida aniqlangan muammolarni hal qilib borish va reja koʻrsatkichlarining bajarilishini taʼminlash. | 2025-yil davomida<br>2025-yil davomida | | Tuman (shahar) hokimliklari |
| **51-maqsad: “Yashil iqtisodiyot”ga oʻtish, uning asosi boʻlgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish koʻrsatkichlarini keskin oshirish** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul*** *— Viloyat hokimining oʻrinbosarlari (E.Kamolov)* | | | | | |
| 3. | Davlat ijtimoiy soha ob’yektlarida “yashil energiya” manbalaridan foydalanishni kengaytirish. | **1.** “Boyovut tumani tajribasi” oʻrganish asosida maktabgacha va maktab taʼlimi hamda sogʻliqni saqlash muassasalarida “yashil energiya” manbalarini joriy qilish boʻyicha hududiy rejalarni belgilash.<br>**2.** Mazkur rejalar asosida har bir hududga **grant** mablagʻlarini jalb qilish choralarini koʻrish. | 2025-yil fevral<br>2025-yil yakuniga qadar | Hisob-kitoblarga koʻra, xalqaro moliya institutlari grant mablagʻlari | Viloyat hokimining oʻrinbosarlari **E.Kamolov**, Maktabgacha va maktab taʼlimi boshqarmasi, Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi, Ivestitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi, “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Navoiy filiali |
| **53-maqsad:Oʻzbekiston Respublikasining global transport-logistika tarmoqlariga integrasiyasini chuqurlashtirish va milliy transport tizimining salohiyatini oshirish** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul*** *— Transport boshqarmasi (B.Raximov)* | | | | | |
| 4. | **34-band: Hududlarda jamoat transporti** tizimini rivojlantirish. | **1.** Hududlarda jamoat transportining **6 ta** yangi yoʻnalishlar tarmogʻini tashkil etish. | 2025-yil davomida | Hisob-kitoblarga koʻra | Viloyat hokimining oʻrinbosarlari **E.Kamolov**, Tuman (shahar) hokimliklari |
| | | **2.** Hududlarda jamoat transportida elektron toʻlovlar jozibadorligini oshirish va elektron toʻlovlar ulushini oʻrtacha **30 foiz**ga yetkazish. | | | |
| | | **3.** Hududlarda jamoat transporti uchun yangi zamonaviy jami **75 ta** avtobus xarid qilish. | | | |
| | | **4.** Hududlarda **11 ta** oraliq bekatlarini qurish | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | va rekonstruksiya qilish ishlarini tashkillashtirish. | | | |
| | | **5.** Hududlarda **1 ta** avtovokzal va avtostansiyalar qurish va rekonstruksiya qilish. | | | |
| | | **6.** Avtobuslar harakatiga ustuvorlik berish maqsadida hududlarda jamoat transporti uchun alohida avtobus yoʻlaklarini **7 km**ga **ye**tkazish. | | | |
| | | **7.** Jamoat transportining yoʻnalishini aholi oʻrtasida elektron tanlov asosida ovoz yigʻish orqali aniqlash amaliyotini yoʻlga qoʻyish. | | | |
| | | **8.** Jamoat transporti tizimini tartibga solish, aholining vaqtini tejash maqsadida hozirda viloyat markazlarida mavjud avtobuslar qatnovini tuman markazlarida ham joriy qilish boʻyicha takliflarni ishlab chiqish. | 2025-yil iyun | – | Viloyat hokimining oʻrinbosarlari **E.Kamolov**, Tuman (shahar) hokimliklari |
| 5. | **36-band:** Xalqaro va viloyatlararo yoʻnalishlarda harakat xavfsizligini ta’minlash hamda turistik yoʻnalishlarda avtobus qatnovlarining ulushini oshirish maqsadida **yangi yoʻnalishlar ochish.** | **2.** Masofasi **400 km**dan oshiq boʻlgan viloyatlararo yoʻnalishlar boʻyicha yangi **2 ta** yoʻnalishda katta hajmli avtobuslar qatnovini yoʻlga qoʻyish. | 2025-yil davomida | – | Viloyat hokimining oʻrinbosarlari **E.Kamolov**, Tuman (shahar) hokimliklari |
| 6. | **39-band:** Ichki yoʻllarni ta’mirlash va saqlash va moliyalashtirish tizimini takomillashtirish. | **1.** Respublikaning barcha tuman va shahar obodonlashtirish boshqarmalari (11 ta) tarkibida ichki yoʻllarni saqlash uchastkalarini tashkil etish, ularni, shu jumladan yuqori malakali yoʻl xoʻjaligi mutaxassislari bilan toʻldirib, munosib ish sharoitlarini yaratish. | 2025-yil fevral | Mahalliy byudjetlardan ajratilgan mablagʻlar doirasida | Viloyat hokimining oʻrinbosarlari **E.Kamolov**, Tuman (shahar) hokimliklari |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | **2.** Obodonlashtirish boshqarmalariga ichki yo‘llarni saqlash uchun zarur bo‘ladigan 34 ta texnika (29,9 mlrd so‘m) xarid qilish.<br>**3.** Har bir tuman va shahar obodonlashtirish boshqarmalari tarkibida tashkil etiladigan uchastkalarga qo‘shimcha shtat birliklari ajratish.<br>**4.** 2025 yildan boshlab har bir tuman va shahar obodonlashtirish boshqarmalariga ichki yo‘llarni saqlash va ta’mirlash uchun 4 mlrd so‘mdan jami 44 mlrd so‘m mablag‘ ajratish. | 2025-yil davomida | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul*** *— Avtomobil yo‘llari boshqarmasi (A.Halimov)* | | | | | |
| 7. | **40-band:**<br>Avtomobil yo‘llarida **transport vositalari va piyodalarning xavfsiz harakati**ni ta’minlash. | **1.** Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarida yo‘l belgilarini o‘rnatish.<br>**2.** Avtomobil yo‘llarida **12 ta**dan ortiq svetofor ob’yektlarini o‘rnatish va mavjudlarini rekonstruksiya qilish.<br>**3.** Aholi punktlarida piyodalar harakatlanishi uchun **38 km**dan ortiq piyodalar yo‘laklarini barpo etish. | 2025-yil davomida | Ijrochilar mablag‘lari | Viloyat hokimining o‘rinbosarlari **E.Kamolov**, Ichki ishlar boshqarmasii, Tuman (shahar) hokimliklari |
| 8. | **41-band:**<br>Respublikadagi ko‘prik infratuzilmasini yaxshilash. | **1.** Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlardagi **10 ta** ko‘prik inshootlari holatini yaxshilash bo‘yicha texnik-iqtisodiy asoslarni ishlab chiqish.<br>**2.** Ishlab chiqilgan texnik-iqtisodiy asoslarga ko‘ra xalqaro moliya institutlari mablag‘larini jalb qilish choralarini ko‘rish. | 2025-yil davomida | Xalqaro moliya institutlari mablag‘lari | Viloyat hokimining o‘rinbosarlari **E.Kamolov**, Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi |
| 9. | **43-band:**<br>Yo‘l xo‘jaligi sohasida | **1.** Avtomobil yo‘llarida avtomatlashtirilgan vazn va hajm parametrlari nazorati bo‘yicha | 2025-yil davomida | | Viloyat hokimining o‘rinbosarlari |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | **xususiy sektor faoliyatini rivojlantirish**. | stasionar va ko‘chma shoxobchalar o‘rnatish va sohaga xususiy sektorni jalb qilish.<br>**2.** Autsorsing asosida **20 kilometr** yo‘llarni ekspluatatsiya qilish ishlariga xususiy sektorni jalb qilish. | | | **E.Kamolov** |
| **54-maqsad: Qishloq xo‘jaligida hosildorlik va rentabellik darajasini keskin oshirish** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul*** *— Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi (S.Hikmatov)* | | | | | |
| 10. | **47-band:**<br>Qishloq xo‘jaligida suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalarini joriy qilish. | **1.** Qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarida suv tejovchi texnologiyalarni joriy etishni yanada kengaytirish.<br>**2.** Jami 24,3 ming gektar suv tejovchi texnologiyalar, shundan 1,6 ming gektar tomchilatib, 1,5 ming gektar yomg‘irlatib, 600 gektar diskret sug‘orish, 5,2 ming gektar eguluvchan quvr, 400 gektar egatga plyonka to‘shab sug‘orish texnologiyalarini joriy etish, 15 ming gektar maydonlarda lazerli tekislash ishlarini amalga oshirish hisobiga 40 mln kub metr suvni iqtisod qilish. | 2025-yil oktyabr | – | Viloyat hokimining o‘rinbosari **S.Hikmatov**, Quyi Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi, Tegishli tumanlar hokimliklari |
| 11. | **48-band:**<br>Chorvachilikda yillik o‘sish sur’atini kamida 3,8 foizga yetkazish. | Chorvachilikda o‘sish sur’atini o‘rtacha 3,8 foizga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish.<br>Bunda:<br>qoramollar bosh sonini 563,6 ming boshga, qo‘y-echkilar bosh sonini 2,56 mln boshga, parrandalar bosh sonini 3,7 mln boshga, go‘sht ishlab chiqarishni 211 ming tonnaga (tirik vaznda), sutni 588,7 ming tonnaga yetkazish va 463,3 mln dona tuxum ishlab chiqarish;<br>chorvachilik sub’yektlari tomonidan chetdan 600 boshdan ziyod naslli qoramol va 10 ming | 2025-yil may<br><br>2025-yil davomida | – | Viloyat hokimining o‘rinbosari **S.Hikmatov**, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi, Tuman (shahar) hokimliklari |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | boshga yaqin nasldor qoʻy-echkilarni olib kelish;<br>aholi xonadonlari va fermerlardagi 110 ming bosh sigir va tanalar sun’iy urugʻlantirilishini tashkil etish;<br>11 ta chorvachilik sub’yektini naslchilik toifasiga oʻtkazish orqali naslchilik xoʻjaliklari sonini 56 taga yetkazishni nazarda tutish. | | | |
| 12. | **49-band:**<br>Ipak mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,2 barobarga, eksport hajmini 1,5 barobarga oshirish. | **1.** Yangi tutzorlar barpo qilish uchun belgilangan yer maydonlarini ijaraga berish uchun “E-auksion” elektron savdo platformasiga joylashtirish hamda ajratilishini ta’minlash.<br>**2.** 50,9 mlrd soʻmlik ipak mahsulotlarini ishlab chiqarishni tashkil etish.<br>**3.** Ipak mahsulotlarining eksportini 7,8 mln dollarga yetkazish. | 2025-yil davomida | – | Viloyat hokimining oʻrinbosari **S.Hikmatov**, “Navoiy agro-pilla” MCHJ, Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish boshqarmasi, Tegishli tumanlar hokimliklari |
| 13. | **51-band:**<br>Meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan 1 ta tumanda meva-sabzavotlarni shok usulida muzlatishni yoʻlga qoʻyish boʻyicha yangi loyihalarni amalga oshirish. | Yil yakuni bilan umumiy quvvati 4 ming tonna boʻlgan agrologistika markazlarini qurish loyihalarini amalga oshirish, bunda:<br>**1.** 1 ta meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan tumanda meva-sabzavotlarni saqlash boʻyicha loyihalarni shakllantirish.<br>**2.** Loyihalarning manzilli roʻyxatini shakllantirish va moliyaviy manbalarini aniqlash.<br>**3.** Loyihalarni ishga tushirish choralarini koʻrish. | 2025-yil mart<br>2025-yil avgust<br><br>Tarmoq jadvaliga asosan<br>Tarmoq jadvaliga asosan | – | Viloyat hokimining oʻrinbosari **S.Hikmatov**, Tuman (shahar) hokimliklari |
| **57-maqsad: Raqamli texnologiyalarni rivojlantirgan holda mamlakatni mintaqaviy “IT-HUB”ga aylantirish** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul*** *— Raqamli texnologiyalar vazirligi hududiy shoʻbasi (A. Buronov)* | | | | | |
| 14. | **65-band:** | **1** Ay-Ti park eksport qiluvchi rezidentlari | 2025-yil | – | Viloyat hokimining |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | Raqamli texnologiyalar sohasida eksport qiluvchi korxonalar soni hamda IT xizmatlar va dasturiy mahsulotlar hajmini oshirish. | sonini 4 taga oshirish, shu jumladan xorijiy kapital ishtirokidagi kompaniyalarni 3 taga koʻpaytirish.<br>**2** IT park rezidentlari sonini 64 taga yetkazish hamda Ay-Ti xizmatlar va dasturiy mahsulotlar hajmini 100 mlrd.soʻmga yetkazish.<br>**3.** IT park rezidentlari faoliyatiga salbiy ta’sir koʻrsatuvchi turli xil cheklovlarni kamaytirish va olib tashlash yuzasidan takliflarni ishlab chiqish. | dekabr | | maslahatchisi **X.Farmonov**, IT park, Tuman (shahar) hokimliklari |
| 15. | **66-band:**<br>Raqamli texnologiyalar sohasidagi startap-loyihalarni qoʻllab-quvvatlash va sohada yaratilgan ish oʻrinlari sonini oshirish. | “Raqamli startaplar” dasturi doirasida respublika tomonidan tashkillashtiriladigan akseleratsiya dasturlarida Navoiy viloyatidagi startap-loyihalar ishtirokini ta’minlash. | 2025-yil aprel | – | Viloyat hokimining maslahatchisi **X.Farmonov**, Tuman (shahar) hokimliklari |
| **58-maqsad: Oʻzbekistonda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyohlar sonini oshirish** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul*** *— Turizm boshqarmasi (S.Mirzayev)* | | | | | |
| 16. | **67-band:**<br>Tabiiy mahsulotlardan foydalangan holda oʻziga xos suvenirlarni ishlab chiqaruvchi **hunarmandlarni qoʻllab-quvvatlash**, milliy an’analarni saqlash va moddiy merosni targʻibot qilish. | **2.** Yangi mahsulot (suvenir) turlarini yaratish uchun kreativ yondashuvlarni ragʻbatlantirish, ayniqsa zamon bilan hamnafas yosh hunarmandlar uchun qulay ishlab chiqarish infratuzilmasini yaratish. | 2025-yil may | Ijrochilar mablagʻlari | Hunarmand uyushmasi viloyat boshqarmasi, Tuman (shahar) hokimliklari |
| 17. | **68-band:**<br>Turizm xizmatlarini | Mamlakatning boy tabiati, koʻplab milliy bogʻlari va yovvoyi hayvonot olamiga | 2025-yil davomida | Tashabbuskorlar mablagʻlari | Viloyat hokimining oʻrinbosari |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | diversifikasiya qilish va yangi turizm yo‘nalishlarini kengaytirish va xorijiy sayyohlarning respublikada o‘rtacha qolish muddatini 10-12 kunga yetkazish. | sayohatchilarni jalb qilish.<br>Bunda:<br>milliy bog‘lar va tabiiy qo‘riqxonalarni safari turlari uchun moslashtirish, ularning infratuzilmasini yaxshilash;<br>Qoraqum va Qizilqum cho‘llari hududida sayyohlar uchun ko‘ngilochar maskanlarni tashkil etish choralarini ko‘rish;<br>Safari va kemping maskanlari hududlariga olib boruvchi yo‘llar va infratuzilmani yaxshilash;<br>Safari hududlarida ekologik me’yorlarga mos mehmonxona, yotoq joylari va kempinglarni tashkil qilish, bu orqali turistlarga qulay va tabiatga zararsiz turizmni amalga oshirish. | | | **S.Mirzayev**,<br>Tuman (shahar) hokimliklari |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul*** *— Transport boshqarmasi (B. Raximov)* | | | | | |
| 18. | **70-band:**<br>Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun jamoat transporti hamda transport infratuzilmalarida to‘siqsiz harakatlanish uchun sharoitlar yaratish. | **1.** Navoiy shahridagi 25 ta avtobus bekatlari, 1 ta temir yo‘l vokzallarida, viloyat markazlarida harakatlanadigan barcha avtobuslarda nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun to‘siqsiz harakatlanish uchun sharoitlar yaratish.<br>**2.** Piyodalar yo‘llarida nogironlar uchun teng sharoitlar yaratish, svetoforlarda nogironlar uchun maxsus tovush chiqaruvchi qurilmalar o‘rnatish. | 2025-yil davomida | Tashabbuskorlar hamda xo‘jalik birlashmalari mablag‘lari | Viloyat hokimining o‘rinbosari **E.Kamolov**, Ijtimoiy himoya milliy agentligi viloyat boshqarmasi, IIB YHXB |
| **59-maqsad: Hududlarda xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul*** *— Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat boshqarmasi (N.Atajanov)* | | | | | |
| 19. | **71-band:**<br>Aholi gavjum bo‘lgan ko‘chalarda savdo, | **1.** Hududlarda savdo, maishiy, sayilgoh va ko‘ngilochar xizmatlarini rivojlantirish uchun har yili bir mingta bo‘sh yer maydonlarini | 2025-yil dekabr | – | Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari **R.Sulaymonov**, |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | maishiy, sayilgoh va ko‘ngilochar xizmatlarini rivojlantirish. | auksion savdolariga chiqarish.<br>Bunda:<br>infratuzilmasi mavjud va aholi gavjum hududlarda bo‘sh yer maydonlarini aniqlash;<br>aniqlangan yer maydonlarini belgilangan tartibda auksionga chiqarish;<br>auksionga chiqarilgan yer maydonlarini ular to‘g‘risida hokim yordamchilari tomonidan, shuningdek, ommaviy axborot vositalarida targ‘ibot ishlarini jadallashtirish orqali sotish choralarini ko‘rish. | | | Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi,<br>Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi,<br>Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi,<br>Tuman (shahar) hokimliklari |
| | | ***Ijro uchun asosiy mas’ullar** — Viloyat hokimining o‘rinbosari (S.Mirzayev)* | | | |
| | | 2. Ko‘chalarda “Street food” festivallarini tashkil etish orqali oziq-ovqat xizmatlarini rivojlantirish. | 2025-yil davomida | Hisob-kitoblarga ko‘ra | – |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul** — Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi (A.Niyozov)* | | | | | |
| 20. | **72-band:**<br>Shahar va tumanlar me’moriy qiyofasini yaxshilash, mavjud binolarning tashqi fasad qismini ta’mirlash, ko‘ngilochar va tadbirkorlik binolarini qurish maqsadida shahar va tumanlar markaziy ko‘chalarining loyiha konsepsiyalarini ishlab chiqish. | Shahar va tumanlarning markaziy ko‘chalarini tanlab olish hamda loyiha konsepsiyasini ishlab chiqish.<br>Bunda:<br>maxsus lisenziyaga ega mahalliy va xorijiy loyiha tashkilotlarini jalb qilish;<br>hududlarning iqlim sharoiti hamda ushbu hududda yashovchi aholining asosiy kasb turini inobatga olish. | 2025-yil mart | – | Viloyat hokimining o‘rinbosari **E.Kamolov**,<br>Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi,<br>Avtomobil yo‘llari boshqarmasi,<br>Turizm boshqarmasi,<br>Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi |
| 21. | **73-band:**<br>Xalqaro va davlat | **1.** Xalqaro ahamiyatga ega A-380 va M-37 yo‘li bo‘yida hududidagi qishloq xo‘jaligida | 2025-yil davomida | – | Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | ahamiyatidagi magistral yo‘li bo‘yi hududlarida xizmat ko‘rsatish ob’yektlarini ko‘paytirish, logistika markazlarini tashkil etish. | foydalanilmaydigan yer maydonlarini tanlash.<br>**2.** Tanlangan yer maydonlarida xizmat ko‘rsatish ob’yektlarini joylashtirish bo‘yicha loyiha konsepsiyasini ishlab chiqish hamda auksion (ye-auksion, k-savdo) savdolariga chiqarish.<br>**3.** Amalga oshiriladigan loyihalar doirasida zaruriy kredit mablag‘larini tijorat banklari tomonidan ajratilishiga ko‘maklashish.<br>**4.** Loyihalarni belgilangan muddatlarda ishga tushirish hamda doimiy monitoring qilib borish. | | | **R.Sulaymonov**,<br>Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi,<br>Avtomobil yo‘llari boshqarmasi,<br>Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul*** *—-Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi (G‘.Boboqulov)* | | | | | |
| 22. | **74-band:**<br>Savdo, maishiy, sayilgoh va ko‘ngilochar xizmatlarini rivojlantirish. | **1.** Tanlab olingan ko‘chalarda xatlov o‘tkazib, bo‘sh yer maydonlarini aniqlash.<br>**2.** Aniqlangan bo‘sh yer maydonlarini lotlarga ajratib auksion (ye-auksion, k-savdo) savdolariga chiqarish.<br>**3.** Shaharsozlik loyihalari asosida zaruriy infratuzilmasi mavjud va aholi gavjum bo‘lgan ko‘chalarda **7 ta** savdo, maishiy, sayilgoh va ko‘ngilochar xizmatlarini tashkil etish. | 2025-yil davomida | – | Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari **R.Sulaymonov**,<br>Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi,<br>Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi,<br>Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat boshqarmasi |
| 23. | **75-band:**<br>“Yangi O‘zbekiston” massivlarida va xalqaro avtomobil yo‘llari bo‘yida savdo va servis ob’yektlarini tashkil etish. | **1.** “Yangi O‘zbekiston” massivlari hududlaridagi hamda xalqaro avtomobil yo‘llari bo‘ylaridagi qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan yer maydonlarini tanlash.<br>**2.** Tanlangan yer maydonlarida xizmat ko‘rsatish ob’yektlarini joylashtirish maqsadida bo‘sh yer maydonlarini auksion | 2025-yil davomida | – | Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari **R.Sulaymonov**,<br>Transport boshqarmasi,<br>Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi,<br>Qurilish va uy-joy |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | (ye-auksion, k-savdo) savdolariga chiqarish.<br>**3.** Amalga oshiriladigan loyihalar doirasida zarur kredit mablagʻlarini tijorat banklari tomonidan ajratilishiga koʻmaklashish.<br>**4.** Loyihalarni belgilangan muddatlarda ishga tushirish hamda doimiy monitoring qilib borish. | | | kommunal xoʻjaligi boshqarmasi,<br>Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat boshqarmasi |
| ***Ijro uchun asosiy mas'ul** — Viloyat hokimining oʻrinbosarlari (E. Gʻafforov, R. Sulaymonov)* | | | | | |
| 24. | **76-band:**<br>Hududlararo sanoat kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish. | Hududlar kesimida har yili Hududlararo kooperatsiya va hamkorlik forumini tashkil etish amaliyotini yoʻlga qoʻyish. Bunda:<br>forum respublika hududidagi sanoat korxonalari, yetkazib beruvchi tashkilotlar va keng tadbirkorlik doirasi vakillari, moliya, bank, logistika va boshqa biznes xizmatlarini koʻrsatuvchi tashkilotlar ishtirokida tashkil etish;<br>forum natijalari boʻyicha hududlararo yangi biznes aloqalarini yoʻlga qoʻyish, sanoat va boshqa sohalarda yangi loyihalarni boshlash uchun sharoitlar yaratish, shuningdek, sohada mavjud muammolarni oʻrganish, ularni hal etish boʻyicha takliflarni Hukumatga kiritish. | 2025-yil yakuniga qadar | Hisob-kitoblarga koʻra | Viloyat hokimining yordamchisi **Gʻ.Yaxshilikov**, Tuman (shahar) hokimliklari |
| **60-maqsad: Hududlarni kompleks rivojlantirish, urbanizasiya strategiyasini amalga oshirish, aholini arzon uy-joy bilan ta'minlash darajasini oshirish** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas'ul** — Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi boshqarmasi (A. Niyozov)* | | | | | |
| 25. | **77-band:**<br>135 ming xonadonli koʻp qavatli uy-joylar qurish va “Yangi Oʻzbekiston” massivlari sonini 3 taga | **1.** 2025 yil uchun uy-joy qurilishi va ipoteka dasturini ishlab chiqishda yangidan barpo etiladigan “Yangi Oʻzbekiston” va boshqa massivlarni shaharlar hamda ularga tutash hududlarda joylashtirish. | 2025-yil davomida | Tijorat banklarining kreditlari, Davlat byudjeti mablagʻlari | Viloyat hokimining oʻrinbosari **E.Kamolov**, Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi, |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | yetkazish. | **2.** “Yangi Oʻzbekiston” massivlari va uy-joyga talab yuqori boʻlgan hududlarda 5,5 ming xonadonli koʻp qavatli uy-joylar qurilishini amalga oshirishni tashkil etish. | | | Markaziy bank, Tuman (shahar) hokimliklari |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul** — Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi (Gʻ.Boboqulov)* | | | | | |
| 26. | **79-band:** “Zarbdor tajribasi” asosida 1 ta, “drayver” loyihalarni amalga oshirish. | **1.** Tanlab olingan “drayver” loyihalarni zarur infratuzilma *(elektr, suv ta’minoti, yoʻlni, irrigatsiya, kanalizatsiya, drenaj tizimlarini ta’mirlash, hududni obodonlashtirish va hokazo)* bilan ta’minlash.<br>**2.** Infratuzilma bilan ta’minlangan hududlardagi boʻsh yer maydonlarni lotlarga ajratib auksion savdolariga chiqarish.<br>**3.** Auksion savdolarida sotib olingan yoki tadbirkorning oʻzining yer maydonida sanoat, savdo va servis hamda qishloq xoʻjaligida *(soy boʻyi, sohil boʻyi, 24/7 koʻcha, bogʻlar, sayilgohlar, yangi yerlarni oʻzlashtirish va hokazo)* loyihalarni amalga oshirish. | 2025-yil davomida | Byudjet mablagʻlari, tijorat banklarining kreditlari, aholi va tadbirkorlarning m ablagʻlari | Viloyat hokimining oʻrinbosari **R.Sulaymonov**, Markaziy bank, Tuman (shahar) hokimliklari |
| 27. | **80-band:** 2025 yil davomida Respublikada 1 ta tuman (shahar)ni jadal kompleks rivojlantirish dasturini amalga oshirish hamda qoʻshimcha 3 ta hududlar boʻyicha takliflar kiritish. | **1.** Tuman markazini aholi yashashi va dam olishi uchun qulay shaharga aylantirish.<br>**2.** Zamonaviy yoshlar hududini tashkil qilish.<br>**3.** Yoʻlboʻyi infratuzilmasini rivojlantirish.<br>**4.** Infratuzilmani rivojlantirish, “yashil tamoyillar”ni joriy qilish. | 2025-yil davomida | Byudjet mablagʻlari, tijorat banklarining kreditlari | Viloyat hokimining birinchi oʻrinbosari **R.Sulaymonov,** Markaziy bank |
| **61-maqsad: Infratuzilma loyihalarini barqaror va uzoq muddatli moliyalashtirish manbalari bilan ta’minlash** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul** — Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi boshqarmasi (A. Niyozov)* | | | | | |
| 28. | **82-band:** Hududlarda issiqlik | **Zarafshon shahridagi** 1967 yilda qurilgan **markaziy qozonxonani davlat-xususiy** | 2025-yil noyabr | Davlat-xususiy sheriklik asosida | Viloyat hokimining oʻrinbosari |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | ta'minoti tizimlarini davlat-xususiy sheriklik asosida modernizatsiya qilish. | **sheriklik asosida modernizatsiya qilish** va boshqaruvga berish choralarini koʻrish. | | | **E.Kamolov**,<br>"Issiqlik manbai" DUK,<br>"Navoiysuvta'minoti" MCHJ,<br>Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi |

Navoiy viloyat hokimining
2025-yil 21-fevraldagi
58-5-0-Q/25-son qaroriga
5-ilova

**“Oʻzbekiston — 2030” strategiyasining Barqaror iqtisodiy oʻsish orqali aholi farovonligini taʼminlash yoʻnalishi boʻyicha 2025-yilda ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalariga takliflar kiritish boʻyicha**

**chora-tadbirlar rejasi**

| T/r | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | Normativ-huquqiy hujjat loyihasida nazarda tutiladigan chora-tadbirlar | Ijro muddati | Hamijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| **II. BARQAROR IQTISODIY OʻSISH ORQALI AHOLI FAROVONLIGINI TAʼMINLASH** | | | | |
| **53-maqsad: Oʻzbekiston Respublikasining global transport-logistika tarmoqlariga integratsiyasini chuqurlashtirish va milliy transport tizimining salohiyatini oshirish** | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy masʼul** — Transport boshqarmasi (B.Raximov)* | | | | |
| 1. | **12-band:**<br>“Jamoat transportini rivojlantirish strategiyasi”ni tasdiqlash boʻyicha normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | Loyihada:<br>jamoat transporti tizimining barcha turlarini uzviy bogʻlagan holda kompleks rivojlantirish hamda jamoat transportining yangi yoʻnalishlari tarmogʻini joriy etish orqali tubdan takomillashtirish;<br>zamonaviy transport-oʻtish bogʻlamalari, avtoturargohlar, oraliq avtobus bekatlarini tashkil etish hamda jamoat transporti harakatiga ustuvorlik berish uchun avtomobil yoʻllari va chorrahalarini qayta loyihalashtirish;<br>jamoat transporti harakat tarkibini zamonaviy, ekologiyaga zarari nisbatan kam boʻlgan elektrobus, avtobus va mikroavtobuslar bilan yangilash orqali yoʻnalishlarni optimallashtirish hamda transport xizmatlari sifatini oshirish;<br>avtomatlashtirilgan toʻlov tizimini takomillashtirish, tashuvchilarni moliyalashtirish va tarif siyosatini | 2025-yil sentyabr | Viloyat hokimining oʻrinbosari **E.Kamolov**, Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | takomillashtirish orqali davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yaratish;<br>raqamli texnologiyalarni va innovasion yondashuvlarni keng qo‘llagan holda transport vositalari harakatini boshqarishning intellektual tizimlarini joriy etish hamda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash;<br>avtoturargohlar, oraliq avtobus bekatlari, jamoat transporti hamda avtomobil yo‘llari va chorrahalarini nogironligi bo‘lgan shaxslarning to‘siqsiz harakatlanishi uchun moslashtirish;<br>“yashil” transportni, xususan velosiped va boshqa motorsiz transport turlarini rivojlantirishni nazarda tutish. | | |
| **60-maqsad. Hududlarni kompleks rivojlantirish, urbanizatsiya strategiyasini amalga oshirish, aholini arzon uy-joy bilan ta’minlash darajasini oshirish** | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul*** *— Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi (G‘.Boboqulov)* | | | | |
| 2. | **22-band:**<br>Respublikaning 1 ta hududini jadal kompleks rivojlantirish bo‘yicha Hukumat qarori loyihasi. | Qaror loyihasida hududlarni jadal kompleks rivojlantirish, yuqori iqtisodiy o‘sishga erishish, aholining barcha qatlamlari uchun yashash va dam olishga qulay sharoit yaratish, biznes muhitini yanada yaxshilash, “o‘sish nuqtalari”ga turtki berish, “yashil tamoyil” va yondashuvlarni keng joriy etish, aholini yuqori daromadli mehnat bilan band qilish hamda tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar asosida ishlashni nazarda tutish. | 2025-yil sentyabr | Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari **R.Sulaymonov**, Markaziy bank |

***Izohlar:***

*Dasturda nazarda tutilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun qabul qilinadigan hujjatlar shakli zaruratga qarab o‘zgartirilishi, boshqa bandlardagi hujjatlar bilan birlashtirilishi yoki bir necha turdagi hujjatlarga bo‘linishi mumkin;*

*normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish jarayonida mutasaddi vazirlik va idoralarning takliflari asosida Dasturda belgilangan chora-tadbirlarning mazmuniga mos keladigan boshqa masalalar ham nazarda tutiladi;*

Navoiy viloyat hokimining
2025-yil 21-fevraldagi
58-5-0-Q/25-son qaroriga
6-ilova

**“O‘zbekiston — 2030” strategiyasining Barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minlash yo‘nalishi bo‘yicha 2025-yilga mo‘ljallangan**

**MAQSADLI KO‘RSATKICHLAR**

| T/r | 2030 yilgacha maqsadli ko‘rsatkich | O‘lchov birligi | 2025-yil | I chorak | II chorak | III chorak | IV chorak | Mas’ullar |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **60-maqsad. Hududlarni kompleks rivojlantirish, urbanizatsiya strategiyasini amalga oshirish, aholini arzon uy-joy bilan ta’minlash darajasini oshirish** | | | | | | | | |
| 1. | **70-band:** Urbanizatsiya darajasini **49,6 foizdan 50 foizga** yetkazish. | foiz | **50,0** | – | – | – | 50,0 | Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari **R.Sulaymonov**, Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi |
| 2. | **71-band:** “Yangi O‘zbekiston” massivlari sonini **3 taga** yetkazish. | ta | **3** | – | – | - | 3 | |
| 3. | **72-band:** “Ochiq byudjet”ga ajratiladigan mablag‘larni **1,5 barobar** oshirish. | trillion so‘m | **225** | - | 100 | - | 115 | |

Navoiy viloyat hokimining
2025-yil 21-fevraldagi
58-5-0-Q/25-son qaroriga
7-ilova

**“Oʻzbekiston – 2030” strategiyasining Suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish yoʻnalishi boʻyicha 2025-yilga moʻljallangan**

**AMALIY TADBIRLAR REJASI**

| T/r | Vazifa | Amaliy chora-tadbirlar | Ijro muddati | Moliyalashtirish manbalari | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|
| **SUV RESURSLARINI TEJASH VA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH** | | | | | |
| **62-maqsad: Respublikada suvdan oqilona foydalanish madaniyatini va suv ishlatish samaradorligini oshirish** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul*** *– Quyi Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (O.Sadinov)* | | | | | |
| 1. | **1-band:** Hududlarda **suv tejovchi** texnologiyalarni joriy qilishni jadallashtirish. | **1.** Suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish boʻyicha talabgorlar kesimida manzilli roʻyxatlarni tasdiqlash. **2.** Tasdiqlangan manzilli roʻyxatlarga asosan talabgor va pudrat korxonalari oʻrtasida “suvkredit.uz” platformasi orqali shartnomalar rasmiylashtirish va moliyalashtirishni amalga oshirish. **3.** Pudrat shartnomalarida belgilangan muddatlarda qurilish-montaj ishlarini yakunlash choralarini koʻrish. | 2025-yil fyevral oyidan boshlab yil davomida | Imtiyozli kredit mablagʻlari hamda talabgorlarning mablagʻlari | Viloyat hokimining oʻrinbosari **S.Hikmatov**, Qishloq xoʻjaligi boshqarmasi |
| 2. | **2-band:** Mahalliy korxonalarning **suv tejovchi texnologiyalarni ishlab chiqarish** quvvatlarini oshirish. | Suv tejovchi texnologiyalarga boʻlgan talab va ehtiyojlarni inobatga olgan holda mahalliy korxonalarning yillik quvvatini kamida **24,3 ming** gektarga yetkazish. | 2025-yil fyevral oyidan boshlab yil davomida | Mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalarning mablagʻlari | Viloyat hokimining oʻrinbosari **S.Hikmatov**, Qishloq xoʻjaligi boshqarmasi |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 3. | **3-band:** Kanallarda suv yoʻqotilishing oldini olish boʻyicha zamonaviy va samarali yondashuvlarni joriy qilish. | Kanallarni betonlashtirish bilan birga mazkur maqsadlarda uzoq muddatga chidamli plenkadan foydalanish amaliyotini ham yoʻlga qoʻyish boʻyicha takliflarni ishlab chiqish. | 2025-yil aprel | – | Viloyat hokimining oʻrinbosari **S.Hikmatov**, Qishloq xoʻjaligi boshqarmasi |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul** — “Navoiy suv ta’minoti” MCHJ (O.Zaripov)* | | | | | |
| 4. | **4-band:** Barcha ichimlik suvi ta’minoti korxonalarida **sifat monitoringini** yuritish va ma’lumotlarni boshqarish markazlarini yaratish. | **1.** Hududlarda ichimlik suv sifati monitoringini yurituvchi markaziy laboratoriya tashkil etish.<br>**2.** Barcha shahar va tumanlardagi ichimlik suv sifatini nazorat qilish uchun laboratoriyalarga biriktirish yoki hududiy sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boʻlimlari bilan shartnomalarni rasmiylashtirish.<br>**3.** Ichimlik suv sifatini monitoringini yuritadigan laboratoriyalarining texnik jihatdan malakaliligini ma’qullash. | 2025-yil davomida | Korxonalar mablagʻlari va boshqa taqiqlanmagan manbalar | Viloyat hokimining oʻrinbosari **E.Kamolov** |
| 5. | **5-band:** Hududlarda oqova tizimini yanada rivojlantirish. | Hududlarda zamonaviy oqova suv tarmoqlarini barpo etish va bu orqali aholi uchun qulay yashash sharoitlarini yaratish. | 2025-yil davomida | Hisob-kitoblarga koʻra | Viloyat hokimining oʻrinbosari **E.Kamolov**, Tuman (shahar) hokimliklari |
| **64-maqsad: Irrigasiya tizimi va suv tejovchi texnologiyalarni rivojlantirish, soha boshqaruviga xususiy sektor va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini keng joriy etish** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul** – Quyi Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (O.Sadinov)* | | | | | |
| 6. | **8-band:** Suv xoʻjaligi ob’yektlarida **avtomatlashtirilgan** | **1. Avtomatlashtiriladigan suv xoʻjaligi ob’yektlari** roʻyxatini shakllantirish. | 2025-yil fevral | Hisob-kitoblarga koʻra | Viloyat hokimining oʻrinbosari **S.Hikmatov** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | **boshqaruv tizimi**ni joriy qilish. | **2.** Ob’yektlar bo‘yicha **loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish**, davlat ekspertizasidan o‘tkazish va tender savdolarini amalga oshirish.<br>**3.** Ob’yektlarda byelgilangan tartibda qurilish-montaj ishlarini yakunlash. | 2025-yil may<br>2025-yil dekabrь | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul*** *— Viloyat hokimining o‘rinbosari (S.Hikmatov)* | | | | | |
| 7. | **10-band:**<br>Mahallalarda ariqlar holatini nazorat qilish va ularni soz holatda saqlash choralarini kuchaytirish. | **1.** Mahallalarda ariqlar holatini o‘rganish ishlarini tashkil etish.<br>**2.** Yopilib qolgan va nosoz holatdagi ariqlarni tiklash ishlarini amalga oshirish. Bunda, mahalla faollarini jalb qilgan holda mahallaning ariqlarini tozalash va chekkalariga gullar ekish. | 2025-yil mart–oktabr oylari mobaynida | – | O‘zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi |
| **65-maqsad: “Yashil energiya” texnologiyalarini keng joriy qilish doirasida nasos stansiyalarining elektr energiyasi iste’molini kamaytirish** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul*** *– Quyi Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (O.Sadinov)* | | | | | |
| 8. | **11-band:**<br>Nasos stansiyalarida energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish va energiya iste’molini kamaytirish. | **1.** Eskirgan **3 ta** nasoslarni zamonaviy energotejamkor turlariga almashtirish va **210 ming kVt/soat elektr energiya tejalishiga** erishish. | 2025-yil dekabr | Davlat byudjeti mablag‘lari | Viloyat hokimining o‘rinbosari **S.Hikmatov** |
| **66-maqsad: Respublikada ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash, inson hayotiga ta’sir o‘tkazuvchi ekologik muammolarni bartaraf etish** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul*** *— Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi (R.Ergashev)* | | | | | |
| 9. | **15-band:**<br>Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o‘zgarishini o‘rganish universitetiga har bir viloyatda **1 ta**dan | “Yashil” texnikumlar faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish maqsadida:<br>“Yashil” texnikumlar tashkil etiladigan kasbiy ta’lim tashkilotlarini Universitetga biriktirish; | 2025-yil iyun | Hisob-kitoblarga asosan,<br>Davlat byudjetidan ajratilgan mablag‘lar doirasida, | Viloyat hokimining o‘rinbosari **J.Xodjayev**,<br>Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | texnikumni biriktirish. | “Yashil” texnikumlar atrofida amaliy mashgʻulotlarni olib borish uchun Ekologiya vazirligining talabnomasiga koʻra botanika yoki dendrologiya bogʻlarini tashkil etish uchun zarur yer maydonlarini ajratish;<br>“Yashil” texnikumlar binolarini qayta taʼmirlash va jihozlash boʻyicha loyiha hujjatlarini (ishchi loyiha, ish hujjatlari, loyiha-smeta hujjatlari) ishlab chiqish;<br>“Yashil” texnikumlar atrofida bogʻlar tashkil etish va unda olib boriladigan amaliy mashgʻulotlar boʻyicha dastur ishlab chiqish. | 2025-yil sentabr<br>2025-yil oktabr<br>2025-yil noyabr | jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari, xalqaro moliya institutlari va xorijiy tashkilotlarning grantlari | boshqarmasi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat boshqarmasi, Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul*** *— Investisiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi (E. Gʻafforov)* | | | | | |
| 10. | **18-band:**<br>Respublikada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning “Eko” brendini ishlab chiqish. | **1.** Respublikada ishlab chiqaruvchilarni oʻrgangan holda “Eko” brendi ishlab chiqaruvchilar roʻyxatini tuzish.<br>**2.** Xaridorlarning ekologik mahsulotlarga boʻlgan talabini qondirish maqsadida respublikada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning “Eko” brendini ishlab chiqish. | 2025-yil may | Ijrochilar mablagʻlari | Viloyat hokimining oʻrinbosarlari **R.Sulaymonov, E.Gʻafforov**, Savdo-sanoat palatasi viloyat boshqarmasi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi boshqarmasi |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul*** *— Mudofaa boshqarmasi (A.Muyiddinov)* | | | | | |
| 11. | **20-band:**<br>Ovchilarga muqobil mashgʻulot sifatida respublika hududlarida | **1.** Respublikaning barcha hududlarida oʻq otish sportiga ixtisoslashtirilgan maxsus poligonlarda xizmat koʻrsatilishini yoʻlga qoʻyish. | 2025-yil mart oyidan boshlab | – | Viloyat hokimining oʻrinbosari **J.Xodjayev**, Iqtisodiyot va moliya |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | o‘q otish sportini rivojlantirish. | **2.** O‘q otish sportiga ixtisoslashtirilgan yangi mashq poligonlarini tashkil etish uchun zarur bo‘lgan yer maydonlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ajratilishini ta’minlash. | 2025-yil aprel | | boshqarmasi |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul*** *– Viloyat hokimining o‘rinbosari (E.Kamolov)* | | | | | |
| 12. | **23-band:** Hayvonlarni saqlash va parvarishlash ishlarini amalga oshirish. | **1 ta hududda** qarovsiz hayvonlarni saqlash va parvarishlashga mo‘ljallangan pitomniklarni (priyut) tashkil etish uchun mablag‘lar yo‘naltirish. | 2025-yil aprel | Mahalliy byudjet mablag‘lari, homiylar mablag‘lari | Tegishli korxona va tashkilotlar |
| **67-maqsad: Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishga qaratilgan “Yashil makon” umummilliy loyihasini kengaytirish** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul*** *— Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi (R.Ergashev)* | | | | | |
| 13. | **25-band:** “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida 200 million tup manzarali va mevali daraxtlar hamda butalar ko‘chatlari va qalamchalarini ekish. | **1.** “Yashil makon” umummilliy dasturi doirasida hududlarning tuproq-iqlim sharoitiga mos ko‘chat turlarini tanlab, bahorgi va kuzgi mavsum uchun manzilli dasturlarni ishlab chiqish.<br>**2.** Mahalliy hokimliklar tomonidan ishlab chiqilgan manzilli dasturlarni tasdiqlangan holda Ekologiya vazirligiga kiritish.<br>**3.** “Yashil makon” umummilliy dasturi doirasida bahorda **8,8 million** tup va kuzda **5,2 million** tup manzarali, mevali daraxtlar va butalar ko‘chatlari hamda qalamchalarini ekishni tashkil etish.<br>**4.** Loyiha doirasida ko‘chat ekish | 2025-yil bahorgi va kuzgi ko‘chat ekish mavsumlarida | Davlat byudjetidan yashil makon loyihasiga ajratilgan mablag‘lar, byudjetdan tashqari mablag‘lar, homiylik va grant mablag‘lari | Viloyat hokimining o‘rinbosari **E.Kamolov**, Viloyat hokimining maslahatchisi **I.Qodirov**, Tuman (shahar) hokimliklari |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | ishlarini tashkillashtirishda mahalla fuqarolar yig‘inlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish. | | | |
| 14. | **26-band:**<br>Respublikada “yashil bog‘lar” barpo etish. | **1.** Tuman (shahar)larda “yashil bog‘lar” barpo etish uchun yer maydonlarini tanlash, (talab etilsa ajratish yuzasidan tegishli qaror yoki farmoyish qabul qilish).<br>**2.** Tanlangan (ajratilgan) yer maydonlarida “yashil bog‘lar” barpo etish uchun “Yashil loyiha” loyihalash instituti bilan shartnomalar tuzish.<br>Bunda ajratilgan yer maydonlarida hududning tuproq-iqlim sharoitiga mos daraxt va butalar turini tanlash, ekish sxemasini belgilash, parvarishlash, sug‘orish va uch yil muddatga biriktirish tizimlari nazarda tutilgan loyihalash va xarajatlar-smeta hujjatlarini ishlab chiqish.<br>**3.** Tanlangan yer maydonlarida loyiha hujjatlari asosida “yashil bog‘lar” barpo etish. | 2025-yil fevral<br><br>2025-yil mart<br><br>2025-yil noyabr-dekabr | Homiylik va grant mablag‘lari,<br>Davlat byudjetidan ajratilgan mablag‘lar doirasida,<br>byudjetdan tashqari taqiqlanmagan boshqa manbalar | Viloyat hokimining o‘rinbosari **E.Kamolov**,<br>Tuman (shahar) hokimliklari |
| 15. | **27-band:**<br>Barcha shaharlarni to‘liq “yashil belbog‘”lar bilan qamrab olish. | **1.** “Yashil belbog‘”larni barpo etish uchun yer maydonlarini belgilash, ularni belgilangan tartibda ajratish bo‘yicha choralar ko‘rish.<br>**2.** Barpo etiladigan “yashil belbog‘”larning loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish.<br>**3.** Tayyorlangan loyiha-smeta | 2025-yildan boshlab | Homiylik va grant mablag‘lari,<br>Davlat byudjetidan ajratilgan mablag‘lar doirasida,<br>byudjetdan tashqari taqiqlanmagan boshqa manbalar | Viloyat hokimining o‘rinbosari **E.Kamolov**,<br>Tuman (shahar) hokimliklari |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | hujjatlari asosida tuproq va iqlim sharoitiga mos daraxt turlarini tanlagan holda “yashil belbogʻ”larni barpo etish. | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul*** *— Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi (Gʻ.Boboqulov)* | | | | | |
| 16. | **29-band:** Tuman (shahar) markazlarida hamda sohil va daryo boʻylarida piyoda va velosiped yoʻlaklari, soyali sayr koʻchalarini tarmogʻini tashkil etish orqali aholiga qulay maskan yaratish. | **1.** Tuman (shahar) markazlarida hamda sohil va daryo boʻylarida xizmatlar infratuzilmasini rivojlantirishni inobatga olgan holda sohil va daryo boʻylarida piyoda va velosiped yoʻlaklari, soyali sayr koʻchalarini tashkil etishni nazarda tutuvchi loyihalar konsepsiyasini va master rejalarini ishlab chiqish.<br>**2.** Aholi uchun piyoda va velosiped yoʻlaklarida daraxtlar va oʻsimliklarni ekish, infratuzilma ob’yektlarini hamda **sogʻlomlashtirish yoʻlaklarini** qurish. | 2025-yil davomida | Xalqaro moliya institutlari, grant mablagʻlari, qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar | Viloyat hokimining oʻrinbosarlari **R.Sulaymonov**, **E.Kamolov**, Qurilish va uy-joy-kommunal xoʻjaligi boshqarmasi, Tuman (shahar) hokimliklari |
| **68-maqsad: Oʻrmonlar maydonini kengaytirish** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul*** *— Davlat Oʻrmon xoʻjaligi (B. Jumayev)* | | | | | |
| 17. | **31-band:** Oʻrmon bilan qoplangan maydonlarni 1,2 million gektarga yetkazish va muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni 11,4 foizgacha kengaytirish. | **1.** Tegishli tumanlar hokimliklarining zaxirasidagi tabiiy oʻrmonzorlarni oʻrmon xoʻjaliklariga doimiy foydalanish uchun ajratish toʻgʻrisidagi mahalliy hokimliklar qarorlarini qabul qilish.<br>**2.** Oʻrmon fondi yer maydonlarida oʻrmonlarni kengaytirish tadbirlarini amalga oshirish. | 2025-yil davomida | Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligiga ajratilgan mablagʻlar | Viloyat hokimining oʻrinbosari **E.Kamolov**, tuman hokimliklari |
| 18. | **32-band:** Choʻl, togʻli va togʻoldi hududlarda choʻllanish va | **1.** Yer maydonlarini tanlash va loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish.<br>**2.** Moliyalashtirish masalasini hal | 2025-yil fevral oyidan boshlab | Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim | Viloyat hokimining oʻrinbosari **E.Kamolov**, |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | qum ko‘chishi, tuproqning suv va shamol eroziyasining oldini olish hamda ekologik muhitni yaxshilash maqsadida himoya o‘rmonlarini (ihota) barpo etish. | qilish, hisob-kitob asosida talab etiladigan mablag‘larni ajratish.<br>**3.** Belgilangan hududlarda ihota daraxtzorlarini barpo etish. | | o‘zgarishi vazirligiga ajratilgan mablag‘lar | Tegishli tuman hokimliklari |
| 19. | **38-band:**<br>Hududlarning joylashuvidan va tuproq-iqlim sharoitlaridan kelib chiqib davlat o‘rmon xo‘jaliklarini ko‘chatchilikka **ixtisoslashtirish**. | Davlat o‘rmon xo‘jaliklarini ko‘chat yetishtirishga ixtisoslashtirish. Bunda:<br>“ilm-loyiha-amaliyot” zanjirida genetik seleksiya ishlari kuchaytirilib, urug‘chilik laboratoriyalari, intensiv tajriba uchastkalari va “onalik” plantatsiyalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish;<br>urug‘larni genetik tahlil qilish, o‘suvchanligini ta’minlash, urug‘larni sertifikatsiya qilishni amalga oshirish;<br>xorijdan unumdor urug‘, nihol va ko‘chatlarni olib kelish hamda ularni introduksiya qilish va rayonlashtirish dasturini ishlab chiqish;<br>intensiv amaliyot tajriba uchastkalari va urug‘chilik onalik plantatsiyalari tashkil etish. | 2025-2030-yillar davomida | Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligiga ajratilgan mablag‘lar, qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar | Viloyat hokimining o‘rinbosari **E.Kamolov**, Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi, Tegishli tuman hokimliklari |
| **69-maqsad: Orolbo‘yi mintaqasida ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, Orol dengizi qurishi natijasida yuzaga kelgan ekologik muammolarning salbiy ta’sirini yumshatish** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul*** *— Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligining hududiy boshqarmasi (A.Hayitov)* | | | | | |
| 20. | **40-band:**<br>Foydali qazilmalarni qazib olish natijasida | Buzilgan yer maydonining rekultivatsiya qilinishini ta’minlash, mazkur sohada ekologik nazorat | 2025-yil dekabr | Hisob-kitoblar asosida | Viloyat hokimining o‘rinbosari **E.Kamolov**, |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | buzilgan yer maydonlarini rekultivatsiya qilish. | tadbirlarini amalga oshirish. | | | **E.G'afforov**, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi boshqarmasi, Tuman (shahar) hokimliklari |
| ***Ijro uchun asosiy mas'ul*** *— Davlat Oʻrmon xoʻjaligi (B. Jumayev)* | | | | | |
| 21. | **41-band:** Orolboʻyi mintaqasidagi oʻrmonzorlarni 50 ming gektarga yetkazish. | **1.** Orol dengizining qurigan tubida va Orolboʻyi mintaqasida oʻrmon barpo etiladigan maydonlarni aniqlash.<br>**2.** "Yashil qoplamalar" barpo etish boʻyicha loyiha hujjatlarini ishlab chiqish.<br>**3.** Moliyalashtirish masalasini hal etish, talab etiladigan mablagʻlarni ajratish.<br>**4.** Oʻrmon barpo etish ishlarini amalga oshirish va umumiy oʻrmonzorlar maydonini 1,2 mln gektarga yetkazish. | 2025-yil fevral<br><br>2025-yil mart<br><br>2025-yil dekabr | Hisob-kitoblarga koʻra, Davlat byudjetidan ajratilgan mablagʻlar doirasida, homiylik va grant mablagʻlari | Viloyat hokimining oʻrinbosari **E.Kamolov**, Tuman (shahar) hokimliklari |
| **70-maqsad: Iqlim oʻzgarishi salbiy ta'sirining oldini olish** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas'ul*** *— Davlat Oʻrmon xoʻjaligi (B. Jumayev)* | | | | | |
| 22. | **42-band:** Choʻllanish, qurgʻoqchilik, chang-qum boʻronlari va haroratning koʻtarilishiga qarshi chora sifatida jami **50 ming gektar** maydonda "yashil qoplamalar" — himoya | **1.** Orol dengizining qurigan tubida va Orolboʻyi mintaqasida oʻrmon barpo etiladigan maydonlarni aniqlash.<br>**2.** "Yashil qoplamalar" barpo etish boʻyicha loyiha hujjatlarini ishlab chiqish.<br>**3.** Moliyalashtirish masalasini hal etish, talab etiladigan mablagʻlarni | 2025-yil fevral<br><br>2025-yil fevral<br><br>2025-yil mart | Hisob-kitoblarga koʻra, Davlat byudjetidan ajratilgan mablagʻlar doirasida, homiylik va grant mablagʻlari | Viloyat hokimining oʻrinbosari **E.Kamolov**, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi boshqarmasi, Tuman (shahar) |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | oʻrmonzorlarini barpo etish. | ajratish.<br>**4.** Orol dengizining qurigan tubida va Orolboʻyi mintaqasida 50 ming gektarda “yashil qoplamalar” — himoya oʻrmonzorlarini barpo etish. | <br>2025-yil dekabr | | hokimliklari |
| **73-maqsad: Atmosfera havosi ifloslanishining oldini olish, uning tabiiy tarkibini saqlash boʻyicha keskin choralar koʻrish** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul*** *— Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi boshqarmasi (R. Ergashev)* | | | | | |
| 23. | **56-band:**<br>Respublika hududlarida havo sifati datchiklarini oʻrnatish. | **1.** Havo sifati datchiklarini oʻrnatiladigan nuqtalarni aniqlash.<br>**3.** Atmosfera havosining ifloslanishini fon monitoringi uchun avtomatlashtirilgan stansiyani markazlashgan holda operativ sotib olish va oʻrnatish ishlarini tashkil etish. | 2025-yil davomida | Ekologiya jamgʻarmasi, Turizm jamgʻarmasi, Gidrometeorologiya xizmati agentligiga ajratilgan mablagʻlar doirasida | Viloyat hokimining o’rinbosari **Sh.Kamolov**, Tuman (shahar) hokimlari |

Navoiy viloyat hokimining
2025-yil 21-fevraldagi
58-5-0-Q/25-son qaroriga
8-ilova

**“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish yo‘nalishi bo‘yicha 2025 yilda ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalariga takliflar ishlab chiqish bo‘yicha**

**CHORA-TADBIRLAR REJASI**

| T/r | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | Normativ-huquqiy hujjat loyihasida nazarda tutilgan tadbirlar | Ijro muddati | Hamijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| **SUV RESURSLARINI TEJASH VA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH** | | | | |
| **66-maqsad: Respublikada ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash, inson hayotiga ta’sir o‘tkazuvchi ekologik muammolarni bartaraf etish** | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul*** *— Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi (R. Ergashev)* | | | | |
| 1. | **4-band:** Daryo va soylar o‘zanlari va ularga tutashgan suv fondi yerlaridan noruda materiallarni qazib olishga bosqichma-bosqich moratoriy joriy qilishni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | **1.** Suv tanqisligidan va suvni ifloslantirilishidan ko‘proq aziyat chekayotgan daryo va soylarni xatlovdan o‘tkazish.<br>**2.** Xatlov natijalariga ko‘ra daryo va soylar o‘zanlari va ularga tutashgan suv fondi yerlaridan noruda materiallarni qazib olishga bosqichma-bosqich moratoriy joriy qilishni nazarda tutuvchi normativ huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish va tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishish.<br>**3.** Hujjat loyihasini o‘rnatilgan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | 2025-yil may | Viloyat hokimining o‘rinbosarlari **E.Kamolov, S.Hikmatov** , Quyi Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi |
| 2. | **8-band:** Mahallalarda suv tejovchi daraxtlarni sug‘orish tizimlarini barpo etish ishlarini tashkil etish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | Loyihada:<br>aholi xonadonlari egalari tomonidan daraxtlarni o‘z vaqtida sug‘orishi ustidan jamoat nazorati o‘rnatilishini ta’minlash;<br>kambag‘al oilalar xonadonlarida yomg‘ir suvini yig‘ish, saqlash va sug‘orishga foydalanish tizimlarini mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish jamg‘armasi hisobiga moliyalashtirishni ruxsat etuvchi me’yorni ishlab chiqish;<br>yangi quriladigan ko‘p xonadonli uy-joylarga tutash | 2025-yil iyul | Viloyat hokimining o‘rinbosari **E.Kamolov**, Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | hududlarda yomg‘ir suvini yig‘ish, saqlash va daraxtlarni sug‘orishda foydalanish tizimini majburiy o‘rnatish masalalari nazarda tutiladi. | | |
| **67-maqsad: Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishga qaratilgan “Yashil makon” umummilliy loyihasini kengaytirish** | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul*** *— Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi (R. Ergashev)* | | | | |
| 3. | **12-band:** Mahallalarda suv tejovchi daraxtlarni sug‘orish tizimlarini barpo etish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | Loyihada respublikaning **3 ta** shaharlardagi **6 mahallada**:<br>xonadonlarda yomg‘ir suvini yig‘ish, saqlash va sug‘orishga foydalanish tizimlarini mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish jamg‘armasi hisobiga moliyalashtirish;<br>yangi quriladigan ko‘p xonadonli uy-joylarga tutash hududlarda yomg‘ir suvini yig‘ish, saqlash va daraxtlarni sug‘orishda foydalanish tizimini o‘rnatish nazarda tutiladi. | 2025-yil avgust | Viloyat hokimining o‘rinbosari **E.Kamolov**, Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi |
| **72-maqsad: Qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqish xizmatlari sifatini yaxshilash** | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul*** *— Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi (R. Ergashev)* | | | | |
| 4. | **28-band:** Sanoat va elektron chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘risidagi normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | Loyihada:<br>sanoat chiqindilari bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish strategiyasini qabul qilish;<br>respublika hududiga import qiluvchilarning “kengaytirilgan majburiyati” tizimini joriy etish;<br>qurilish chiqindilarini bosqichma bosqich saralash, qayta ishlash tizimini joriy qilish nazarda tutiladi. | 2025-yil noyabr | Viloyat hokimining o‘rinbosari **E.Kamolov** |

***Izohlar:***

*Dasturda nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish uchun qabul qilinadigan hujjatlar shakli zaruratga qarab o‘zgartirilishi, boshqa bandlardagi hujjatlar bilan birlashtirilishi yoki bir necha turdagi hujjatlarga bo‘linishi mumkin.*

*Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish jarayonida mutasaddi vazirlik va idoralarning takliflari asosida Dasturda belgilangan tadbirlarning mazmuniga mos keladigan boshqa masalalar ham nazarda tutiladi.*

Navoiy viloyat hokimining
2025-yil 21-fevraldagi
58-5-0-Q/25-son qaroriga
9-ilova

**“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining Suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish yo‘nalishi bo‘yicha 2025-yilga mo‘ljallangan**

**MAQSADLI KO‘RSATKICHLAR**

| T/r | 2030 yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko‘rsatkichlari | O‘lchov birligi | 2025 | I chorak | II chorak | III chorak | IV chorak | Mas’ullar |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **71-maqsad: Biologik xilma-xillik ishonchli saqlanishini ta’minlash** | | | | | | | | |
| 1. | **28-band:** Dorivor va oziq-ovqatbop o‘simliklarni yetishtirish va ko‘paytirish bo‘yicha har yili **2,5 ming gektar** maydonda madaniy plantatsiyalarni tashkil etish. | ming gektar | **2,5** | 0,4 | - | - | 2,1 | Viloyat hokimining o‘rinbosari **S.Hikmatov** |

Navoiy viloyat hokimining
2025-yil 21-fevraldagi
58-5-0-Q/25-son qaroriga
10-ilova

**“Oʻzbekiston – 2030” strategiyasining Qonun ustuvorligini taʼminlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish yoʻnalishi boʻyicha 2025 yilga moʻljallangan**

**AMALIY TADBIRLAR REJASI**

| T/r | Vazifa | Amaliy chora-tadbirlar | Ijro muddati | Moliyalashtirish manbalari | Hamijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|
| **IV. QONUN USTUVORLIGINI TAʼMINLASH, XALQ XIZMATIDAGI DAVLAT BOSHQARUVINI TASHKIL ETISH** | | | | | |
| **75-maqsad: Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarini xalqning chinakam “ovoziga” aylantirish** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy masʼul*** *— Xalq deputatlari viloyat Kengashi kotibiyati (J.Hamroyev)* | | | | | |
| 1. | **2-band:** **Mahalliy byudjetni shakllantirish jarayoniga mahalliy kengash deputatlarini faol jalb etish orqali aholining turmush farovonligini oshirish, deputatlar tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlash tizimini yaratish.** | **Byudjet loyihasini shakllantirishda hududlar toifasidan kelib chiqib, byudjet xarajatlarining uch – besh foizi bevosita mahalliy Kengash deputatlarining tashabbusi asosida yoʻnaltirilishi amaliyotini yoʻlga qoʻyish. Bunda Senat bilan hamkorlikda “saylovchi – deputat – hokim – kengash” toʻrt boʻgʻinli oʻzaro hamkorlik tizimi joriy etilishi nazarda tutiladi.** | **2025-yil may** | **–** | Xalq deputatlari viloyat Kengashi **Gʻ.Aliyev**, Adliya boshqarmasi, tuman (shahar) kyengashlari |
| **76-maqsad: Mahalliy davlat hokimiyati ijro organlari faoliyatini transformasiya qilib, hududiy boshqaruvni “aholi manfaatlariga xizmat qilish” tamoyili asosida yoʻlga qoʻyish** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy masʼul*** *— Viloyat hokimining oʻrinbosarlari* | | | | | |
| 2. | **3-band:** Hududlarni rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlari boʻyicha “Indikatorlar toʻplami”ni yuritish amaliyotini yoʻlga qoʻyish. | **1.** Indikatorlar toʻplamida tuman va shaharlarni **15 ta yoʻnalish**da rivojlantirish boʻyicha **choraklik koʻrsatkichlar**ni belgilash. **2.** Vazirliklar tomonidan mahalliy | 2025-yildan boshlab har yili | – | Viloyat hokimining oʻrinbosarlari, tarkibiy boʻlinma rahbarlari, Tuman (shahar) hokimlari |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | hokimliklar bilan birgalikda “Indikatorlar to‘plami”ni amalga oshirish bo‘yicha mahallalar kesimida oylik va choraklik ish rejalarini tasdiqlash.<br>**3.** “Indikatorlar to‘plami”ning joylardagi ijrosini tahlil qilib, natijalarini hokimlar va mas’ul tashkilotlar rahbarlari ishtirokida tanqidiy ko‘rib chiqish amaliyotini yo‘lga qo‘yish. | | | |
| **87-maqsad. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini inson manfaatlari, qadr-qimmati va huquqlarini himoya qilishga yo‘naltirish** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul*** *— Ichki ishlar boshqarmasi (A. Tasbayev)* | | | | | |
| 3. | **20-band:**<br>Avtomobilь yo‘llarida transport vositalarini erkin va xavfsiz harakatlanishini ta’minlash. | Respublika bo‘yicha barcha tartibga solingan chorrahalarga intellektual transport tizimlarini o‘rnatish va yagona raqamli boshqaruv tizimi joriy etish. | 2025-yil aprel oyidan boshlab yil davomida | Manfaatdor vazirlik va idoralar mablag‘lari | Viloyat hokimining maslahatchisi **X.Farmonov**, Transport boshqarmasi, Raqamli texnologiyalar vazirligi hudududiy sho‘basi |

Navoiy viloyat hokimining
2025-yil 21-fevraldagi
58-5-0-Q/25-son qaroriga
11-ilova

**“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining “Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish yo‘nalishi bo‘yicha 2025-yilga mo‘ljallangan**

**AMALIY TADBIRLAR REJASI**

| T/r | Vazifa | Amaliy chora-tadbir | Ijro muddati | Moliyalashtirish manbalari | Hamijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|
| **V. “XAVFSIZ VA TINCHLIKSEVAR DAVLAT” TAMOYILIGA ASOSLANGAN SIYOSATNI IZCHIL DAVOM ETTIRISH** | | | | | |
| **98-maqsad: Favqulodda vaziyatlar va global iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq aholi hayotiga xavf soluvchi ofatlarning oldini olish** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul*** *— Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi (J.Abramatov)* | | | | | |
| 1. | **32-band:** Senday hadli dasturining asosiy maqsadlariga erishish bo‘yicha aniq tadbirlarni belgilash. | **1.** Barqaror rivojlanishni ta’minlash bo‘yicha mamlakatda olib borilayotgan islohotlarga moslashishni hisobga olgan holda yuksak samaradorlikka erishish maqsadida Senday hadli dasturini amalga oshirish davrini quyidagi ikki bosqichga bo‘lish:<br>1-bosqich: 2025–2026 yillar;<br>2-bosqich: 2027–2030 yillar.<br>**2.** Har bir bosqichda Senday hadli dasturining asosiy maqsadlariga erishish bo‘yicha aniq tadbirlarni belgilash bo‘yicha idoraviy dastur loyihasini ishlab chiqish.<br>**3.** Tegishli bosqichlarga mo‘ljallangan tadbirlar rejalarida boshqa strategik va dasturiy hujjatlardagi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish | 2025-yil dekabr | Respublika byudjeti mablag‘lari, xalqaro moliya institutlari va xorijiy tashkilotlarning grantlari va kreditlari, shuningdek, qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar | Viloyat hokimligi guruh rahbari **U.Sharipov**, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi, Quyi Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi, Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligining hududiy boshqarmasi, tuman (shahar) hokimliklari |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | sohasining turli yo‘nalishlari va ofatlar xavfini kamaytirish xususiyatlariga oid vazifalar va tadbirlarni birlashtirish va inobatga olish. | | | |
| 2. | **33-band:**<br>Respublika aholisining barcha qatlamlarini shahar va tumanlar hamda mahallalar kesimida zilziladan oldin, zilzila paytida va zilziladan so‘ng harakat qilish qoidalariga o‘rgatish ko‘rsatkichini (qamrab olish darajasini) 50 foizga yetkazish. | Quyidagi tartibda aholini zilzilada harakatlanishga tayyorlash ishlarini amalga oshirish:<br>maktabgacha ta’lim (tarbiyalanuvchilari), umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, professional (o‘quvchilari) hamda oliy ta’lim tashkilotlarida (talabalari) muammoli-vaziyatli o‘yinlar va mashg‘ulotlarda, milliy elektron platforma orqali, shuningdek, aholini zilzila sharoitida harakatlanishga tayyorlashga mo‘ljallangan mashg‘ulotlar orqali tayyorgarlikdan o‘tkazish;<br>respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda boshqa tashkilotlarning rahbarlari va xodimlari bilan yillik jamlash rejasi asosida, shuningdek, fuqarolar bilan ixtiyoriy ravishda milliy elektron platforma orqali aholini zilzilada harakatlanishga tayyorlashga mo‘ljallangan masofaviy o‘quv kurslarini tashkil etish. | 2025-yil davomida | Davlat byudjeti, byudjetdan tashqari mablag‘lar hamda homiylik mablag‘lari | Viloyat hokimligi guruh rahbari **U.Sharipov**, Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmsi, Tuman (shahar) hokimliklari, O‘zbekiston ko‘zi ojizlar jamiyati, Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi |

Navoiy viloyat hokimining
2025-yil 21-fevraldagi
58-5-0-Q/25-son qaroriga
12-ilova

**2025-yilda atrof-muhitni asrash yo‘nalishida korxona (tashkilot)lar tomonidan birinchi navbatda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan**

**CHORA-TADBIRLAR REJASI**

| T/r | Vazifalar | Amaliy chora-tadbirlar | Ijro muddati | Moliyalashtirish manbalari | Hamijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|
| *Ijro uchun asosiy mas’ul — **Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi*** | | | | | |
| 1 | **4-band:** Hayvonlarning o‘ta xavfli va boshqa yuqumli kasalliklarining tarqalishini hamda boshqa hayvonlarga va odamga o‘tishini oldini olish maqsadida nobud bo‘lgan va otib tashlangan uy va yovvoyi hayvonlarning jasadlarini yo‘q qilish uchun krematoriy va biotermik (Bekkeri) o‘ralarni qurish. | **1.** Har bir tuman (shahar)da krematoriy va biotermik o‘ralarni qurish uchun belgilangan tartibda yer uchastkalarini ajratish. | 2025-yil dekabr | Hisob-kitoblarga ko‘ra | Viloyat hokimining o‘rinbosari **S.Hikmatov**, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi |
| 2 | **5-band:** Qishloq xo‘jaligida yer resurslarining monitoringini ta’minlash . | **1.** Qishloq xo‘jaligi yerlarining (sho‘rlanish, gumus miqdorining o‘zgarishi holatlari) monitoringini yuritish. Oldingi va hozirgi tuproq unumdorligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni Qishloq xo‘jaligi vazirligining yagona geoaxborot tizimiga kiritish orqali salbiy o‘zgarishlarni o‘z vaqtida aniqlash. | 2025-yil fevral | – | Viloyat hokimining o‘rinbosari **S.Hikmatov**, Quyi Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi, Fyermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | Aniqlangan tuproqdagi salbiy holatlarda (sho'rlanish, eroziya, gumus, azot miqdorini kamayishi va b.) tuproq unumdorligini tiklash, saqlash va oshirish bo'yicha tegishli hokimliklar bilan birgalikda chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish.<br>**2.** Qishloq xo'jaligi yer maydonlarining og'ir metallar va pestisidlar bilan ifloslanishini monitoring qilish, tuproqning unumdor qatlamini saqlab qolish tadbirlarini amalga oshirish. | 2025-yildan boshlab | Hisob-kitoblarga ko'ra | kengashi,<br>Tuman hokimliklari |
| 3 | **6-band:**<br>Yer resurslarining degradatsiya sur'atlarini kamaytirish bo'yicha oldini oluvchi choralar ishlab chiqish va amalga oshirish. | **1.** Daryolarning suvini muhofaza qilish va sohil bo'yi mintaqalarida qirg'oqni mustahkamlovchi o'rmonlar va ihota daraxtzorlarni barpo etish.<br>**2.** Qishloq va o'rmon xo'jaligi hududlarida tuproq degradatsiyasi jarayonlarining sur'atlarini pasaytirish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish.<br>**3.** Tuproq degradatsiyasiga qarshi kurashish, oldini olish, degradatsiyaga moyil tuproqda ekinlarni almashlab ekish, lalmi yerlarning tuproq degradatsiyasini oldini olish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish. | 2025–2026 yillar<br><br>2025-yil may | Ijrochilarning mablag'lari<br><br>Mablag' talab etilmaydi | Viloyat hokimining o'rinbosari **S.Hikmatov**,<br>Quyi Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi,<br>Tuman hokimliklari |
| 4 | **7-band:**<br>Yaylovlardan samarali foydalanish bo'yicha normativ huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish. Yaylovlarning | **1.** Yaylov yerlaridan samarali foydalanish, jumladan, ilg'or xorijiy tajriba asosida yaylovlar tushunchasi va uning huquqiy maqomini qayta ko'rib chiqish.<br>**2.** Yaylovlar degradatsiyasining oldini olish, yaylovlarni barpo etish. | 2025-yil mart | Mablag' talab etilmaydi | Viloyat hokimining o'rinbosari **S.Hikmatov**,<br>O'rmon xo'jaligi,<br>Tuman hokimliklari |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | bosqichma-bosqich to‘liq xatlovdan o‘tkazilishini hamda elektron xaritalari ishlab chiqilishini va elektron hisobi yuritilishini ta’minlash. | **3.** Yaylov yerlarini jismoniy va yuridik shaxslarga foydalanishga, ijaraga berish va boshqa qoidalarni nazarda tutish.<br>**4.** Yaylovlarning har bir kontur va foydalanuvchi kesimida elektron xaritalarni yaratish va Qishloq xo‘jaligi vazirligining yagona geoaxborot tizimiga kiritish.<br>**5.** Xatlov natijalariga ko‘ra, zaxiradagi bo‘sh turgan yer uchastkalarini ochiq elektron tanlovlar asosida ijaraga berish orqali respublika bo‘yicha yaylovlardan sub’yektlar kesimida (fermer, dehqon xo‘jaligi va boshqalar) foydalanilishini bosqichma-bosqich ta’minlash.<br>**6.** Degradatsiyaga uchragan yaylovlarni qayta tiklash va ularning mahsuldorligini oshirish maqsadida istiqbolli ozuqabop yaylov o‘simliklarining birlamchi urug‘chilik maydonlarini tashkil etish. | 2025–2028 yillar davomida | Hisob-kitoblarga ko‘ra | |
| *Ijro uchun asosiy mas’ul* — **Quyi Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi** | | | | | |
| 5 | **10-band:**<br>Suv resurslaridan oqilona foydalanish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish. | **1.** Qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan suvlarni hisobga olish va monitoring qilish tizimini takomillashtirish.<br>**2.** Suv tejovchi texnologiyalarini joriy qilish.<br>**3.** Tuproq qoplamali kanallarni beton qoplamaga o‘tkazish hamda yopiq quvurli sug‘orish tarmoqlarini rekonstruksiya qilish orqali irrigatsiya tizimi va sug‘orish tarmoqlarining foydali ish koeffisiyenti ko‘rsatkichini 0,68 gacha yetkazish. | 2025-yil davomida | Ijrochilarning mablag‘lari | Viloyat hokimining o‘rinbosari **S.Hikmatov**,<br>Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi,<br>Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi,<br>Tuman (shahar) hokimliklari |
| *Ijro uchun asosiy mas’ul* — **Transport boshqarmasi** | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 6 | **17-band:**<br>Avtotransport korxonalari, avtovokzallar, avtobekatlarning transport vositalari harakati va yuk ortish-tushirish ishlarini amalga oshirish korxonalarida avtomobillarni yuvish shoxobchasi faoliyatini yanada takomillashtirish. | **1.** Avtomobillarni yuvish shoxobchasida hosil boʻladigan ishlab chiqarish oqova suvlarini zararli kimyoviy qoʻshimchalar, neftь va moy aralashmalaridan tozalanishi uchun samaradorligi 99,5 foizdan kam boʻlmagan mahalliy tozalash inshootini oʻrnatish.<br>**2.** Yer osti suv zaxiralarini neft mahsulotidan ifloslanishiga yoʻl qoʻymaslik uchun avtomobillarni yuvish maydonchasi, avtomobil turar joyi, kirish-chiqish yoʻllarining yer maydonini maxsus beton toʻshama bilan qoplash.<br>**3.** Ishlab chiqarish oqova suvlari mahalliy tozalash inshootida (maxsus filtr) tozalangandan keyin avtomobillarni yuvish uchun qayta ishlatilishi maqsadida aylanma suv ta’minoti tizimini oʻrnatish. | 2025–2026 yillar | Korxonalarning mablagʻlari | Viloyat hokimining oʻrinbosari **E.Kamolov**, “Navoiy suv ta’minoti” MCHJ, Tuman (shahar) hokimliklari |
| 7 | **18-band:**<br>Respublikaning yirik shaharlarida tirbandliklarning oldini olish va transport vositalarining atmosfera havosiga salbiy ta’sirini kamaytirish. | “Aqlli boshqaruv” tizimini yoʻlga qoʻyish, bunda:<br>ta’lim muassasalarida oʻqish vaqtlarini maqbullashtirish hisobiga tigʻiz vaqtlarda transportga boʻlgan yuklamani kamaytirish;<br>tigʻiz vaqtlarda katta hajmli va ogʻir vaznli yuk avtomobillarining harakatlanishini cheklash yoki tartibga solish;<br>transport oqimi yuqori boʻlgan chorrahalarda svetoforlar fazalarini qayta koʻrib chiqish;<br>chorraha va kesishmalarda muvofiqlashtirilgan svetofor boshqaruvini “aqlli svetoforlar” tizimiga oʻtkazish; | 2025-yil davomida | Korxonalarning mablagʻlari | Viloyat hokimining oʻrinbosari **E.Kamolov**, Viloyat hokimining maslahatchisi **X.Farmonov** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | shaharlarga kiruvchi asosiy avtomobil yo‘llarida vazn va gabarit nazorati bo‘yicha stasionar shoxobchalarni tashkil etish. | | | |
| *Ijro uchun asosiy mas’ul* — **Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligining hududiy boshqarmasi** | | | | | |
| 8 | **23-band:** Foydali qazilmalarni qazib olish natijasida buzilgan yer maydonlarini rekulьtivatsiya qilish. | Buzilgan yer maydonining rekulьtivatsiya qilinishini ta’minlash, mazkur sohada ekologik nazorat tadbirlarini amalga oshirish. | 2025-yil dekabr | Korxonalarning mablag‘lari | Viloyat hokimining o‘rinbosari **S.Hikmatov, E.Kamolov**, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi, Tuman (shahar) hokimliklari |
| 9 | **24-band:** Yer osti suvlari ifloslanishining oldini olish va ularni muhofaza qilish, ulardan foydalanish nazoratini hamda monitoringini kuchaytirish. | **1.** Yer osti suv sathi pasayib borayotgan hududlardagi kuzatuv quduqlarida o‘lchov ishlarini olib borish.<br>**2.** Suv sathi **5 – 20 metrga** pasaygan hududlarda ichimlik maqsadlaridan boshqa maqsadlar uchun quduqlar burg‘ilanishini, suv tejovchi texnologiyalarsiz yerlar sug‘orilishini oldini olish choralarini ko‘rish. | 2025-yil davomida | Mablag‘ talab etilmaydi | Viloyat hokimining o‘rinbosarlari **S.Hikmatov**, **E.Kamolov,** “O‘zbekgidrogeologiya” DM, Tog‘-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasi, Quyi Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi, Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi, Ichki ishlar boshqarmasi, Tuman (shahar) hokimlari |
| 10 | **27-band:** Chuchuk yer osti suvlaridan hosil bo‘ladigan zonalarni qayta o‘rganib chiqish va ularga | Chuchuk yer osti suvlari zonalari doirasida chuchuk yer osti suvlari resurslaridan oqilona foydalanish va ularni ifloslanishdan muhofaza qilish bo‘yicha xatlovdan o‘tkazish.<br>Xatlov natijalaridan kelib chiqqan holda potensial ekologik xavfli ob’yektlarni aniqlash | 2025-yil dekabr | – | Viloyat hokimining o‘rinbosarlari **E.Kamolov, S.Hikmatov**, “O ‘zbekgidrogeologiya” DM, Quyi Zarafshon irrigatsiya |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar maqomini berish. | va chuchuk yer osti suvlarini ifloslantirish va quritib qoʻyishning oldini olishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish. | | | tizimlari havza boshqarmasi, Fermer, dehqon xoʻjaliklari va tomorqa yer egalari kengashi, Ichki ishlar boshqarmasi, Tuman (shahar) hokimlari |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul* — **Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi** | | | | | |
| 11 | **32-band:** Ijtimoiy soha ob'yektlarini chiqindi konteynerlari bilan ta'minlash. | **1.** Maktabgacha ta'lim, maktab, texnikumlar, sogʻliqni saqlash muassasalarini toʻliq xatlovdan oʻtkazish va chiqindi konteynerlariga boʻlgan ehtiyojini aniqlash.<br>**2.** Chiqindi konteynerlari bilan ta'minlash. | 2025-yil avgust | Ijtimoiy soha muassasalariga ajratilgan byudjet mablagʻlari va byudjetdan tashqari mablagʻlar | Viloyat hokimining oʻrinbosarlari **J.Xodjayev, E.Kamolov**, Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul* — **Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi boshqarmasi** | | | | | |
| 12 | **35-band:** Respublika miqyosida ekologik madaniyatni oshirish maqsadida ommaviy targʻibot tadbirlarini tashkil etish. | **1. "Daraxtga nafas bering"** ommaviy tadbirini oʻtkazish.<br>**2. "Ekologiyaning yosh himoyachilari"** loyihasini amalga oshirish.<br>**3. "Green Games"** ekologik turkum oʻyinlarini oʻtkazish.<br>**4.** Bogʻ, sayilgoh, daraxtzor, yashil vohalar oʻrtasida **"Yashil zamin yaratuvchilari"** eko-marafonining an'anaviy koʻrik-tanlovini oʻtkazish. | 2025-yil iyul<br>2025-yil sentyabr<br>2025-yil oktyabr<br>2025-yil dekabr | Ekologiya jamgʻarmasi, ijrochilarning mablagʻlari | Viloyat hokimining oʻrinbosari **E.Kamolov**, Madaniyat boshqarmasi, Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi, Tuman (shahar) hokimliklari |
| *Ijro uchun asosiy mas'ul* — **Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi boshqarmasi hamda Yoshlar ishlari boshqarmasi** | | | | | |
| 13 | **36-band:** "Yoshlar kelajak bunyodkorlari!" **IV ekologiya va turizm** | **1.** Qurultoyni oʻtkazish boʻyicha takliflarni shakllantirish maqsadida ishchi guruhlar tuzish.<br>**2.** Ishchi guruhlar tomonidan takliflarni oʻz | 2025-yil may<br>2025-yil | Turizmni qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasi | Viloyat hokimining oʻrinbosari **J.Xodjayev** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | **xalqaro qurultoyi**ni o‘tkazish. | ichiga olgan qurultoy dasturining loyihalarini ishlab chiqish.<br>**3.** “Yoshlar kelajak bunyodkorlari!” IV ekologiya va turizm xalqaro qurultoyini o‘tkazish. | iyun<br><br>2025-yil avgust | | |
| *Ijro uchun asosiy mas’ul —***Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi hamda Yoshlar ishlari boshqarmasi** | | | | | |
| 14 | **37-band:**<br>“Yoshlar oyligi” doirasida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishga bag‘ishlangan turkum tadbirlar o‘tkazish hamda **“Ekologiya bilimdonlari”** ko‘rik tanlovini o‘tkazish. | **1.** “Yoshlar oyligi” doirasida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishga bag‘ishlangan turkum tadbirlar o‘tkazish bo‘yicha takliflarni shakllantirish maqsadida ishchi guruhlar tuzish.<br>**2.** Ishchi guruhlar tomonidan takliflarni o‘z ichiga olgan turkum tadbirlar dasturi hamda **“Ekologiya bilimdonlari”** ko‘rik tanlovining nizomini ishlab chiqish.<br>**3.** “Yoshlar oyligi” doirasida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishga bag‘ishlangan turkum tadbirlar o‘tkazish hamda **“Ekologiya bilimdonlari”** ko‘rik-tanlovini o‘tkazish va g‘oliblarni taqdirlash.<br>**4.** 30-iyun – “Yoshlar kuni” doirasida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida faol va tashabbuskor bo‘lgan ekofaol yoshlarni rag‘batlantirish. | 2025-yil aprel<br><br>2025-yil may<br><br>2025-yil iyun<br><br>2025-yil iyun | Hisob-ktoblarga ko‘ra | Viloyat hokimining o‘rinbosari **J.Xodjayev** |

Navoiy viloyat hokimining
2025-yil 21-fevraldagi
58-5-0-Q/25-son qaroriga
13-ilova

## Navoiy viloyatida "Yashil turizm" dasturini amalga oshirish
## CHORA-TADBIRLARI REJASI

| T/r | Chora-tadbir nomi | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Moliyalashtirish manbasi | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | **2-band:** Mehmonxonalarda yashil hududlarni ko'paytirishni targ'ib qilish. | **1.** Mehmonxonada yashil hududni ko'paytirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.<br>**2.** Tadbirkorlar orasida keng targ'ib qilish. | 2025-yil fevral<br><br>Doimiy ravishda | Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi | Turizm boshqarmasi, Savdo-sanoat palatasi viloyat boshqarmasi, Tuman (shahar) hokimliklari |
| 2. | **3-band:** "Yashil mehmonxona" tizimini joriy qilgan tadbirkorlarni rag'batlantirish mexanizmini joriy etish. | **1.** Yangi mehmonxonalar uchun subsidiya ajratishda "yashil mehmonxona" talabini kiritish.<br>**2.** Yangi tartibni tadbirkorlar orasida keng targ'ib qilish. | 2025-yil iyun<br><br>Doimiy ravishda | Mablag' talab etilmaydi | Turizm boshqarmasi, Tuman (shahar) hokimliklari |
| 3. | **5-band:** Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy tajribasi asosida mehmonxona va ovqatlanish maskanlarida tejamkor sanitariya-gigiyena shoxobchalari qurilishini targ'ib qilish. | **1.** Xorijiy tajribani o'rganish.<br>**2.** Tejamkor sanitariya-gigiyena shoxobchalari bo'yicha taqdimot tayyorlash.<br>**3.** Turizm yo'nalishidagi tadbirkorlar orasida targ'ibot ishlarini olib borish. | 2025-yil mart<br>2025-yil aprel<br><br>Doimiy ravishda | Tashabbuskorlar mablag'lari | Turizm boshqarmasi, Savdo-sanoat palatasi viloyat boshqarmasi, Tuman (shahar) hokimliklari |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 4. | **6-band:** Turizm ob’yektlarida bir martalik plastiklardan qayta ishlanadigan mahsulotlarga o‘tish. | **1.** Qayta ishlanadigan mahsulotlar joriy qilishni rag‘batlantirish mexanizmini ishlab chiqish.<br>**2.** Tadbirkorlar bilan bir martalik plastikni kamaytirish bo‘yicha manzilli ishlash. | 2025-yil mart<br><br>Doimiy ravishda | Tashabbuskorlar mablag‘lari | Turizm boshqarmasi,<br>Savdo-sanoat palatasi viloyat boshqarmasi,<br>Tuman (shahar) hokimliklari |
| 5. | **7-band:** Milliy bog‘lar va qo‘riqxonalar hududida namunali tashrif markazi (Visit center), glemping, kapsula va modulli mehmonxonalar tashkil etish. | **1.** Milliy bog‘ va qo‘riqxonalarda tegishli hududlarni belgilash.<br>**2.** Tashrif markazi (Visit center), glemping, kapsula va modulli mehmonxonalar uchun joylarni o‘rnatilgan tartibda tadbirkorlarga ajratish. | 2025-yil may<br><br>2025-yil davomida | Tashabbuskorlar mablag‘lari | Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi,<br>O‘rmon xo‘jaligi,<br>Tuman (shahar) hokimliklari,<br>Turizm boshqarmasi |
| 6. | **8-band:** Tog‘li hududlarda zamonaviy treking-marshrutlar va kemping-hududlarni tashkil etish. | **1.** Treking-marshrutlar va kemping hududlarni belgilash.<br>**2.** Ekoturizm uchun zarur infratuzilmani yaratish. | 2025-yil aprel<br>2025-yil oktyabr | Turizmni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi | Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi,<br>O‘rmon xo‘jaligi,<br>Tuman (shahar) hokimliklari,<br>Turizm boshqarmasi |
| 7. | **9-band:** “yashil turizm” infratuzilmasi loyihalarini amalga oshirish. | **1.** “Yashil turizm" infratuzilma loyihalarining ro‘yxatini shakllantirish.<br>**2.** Tadbirkorlik sub’yektlari bilan birgalikda loyihalarning amalga oshirilishini ta’minlash. | 2025-yil fevral<br><br>2025-yil davomida | Tashabbuskorlar mablag‘lari | Tuman (shahar) hokimliklari,<br>Investisiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi,<br>Turizm boshqarmasi |
| 8. | **12-band:** Umumiy ovqatlanish maskanlarida organik, vegan va diabetik | **1.** Organik, vegan va diabetik menyular namunalarini tayyorlash.<br>**2.** Ekspertlarni jalb qilgan holda | 2025-yil mart<br><br>2025-yil | Turizmni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi | Turizm boshqarmasi,<br>Tuman (shahar) hokimliklari |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | hamda kaloriyalar ko‘rsatilgan menyularni joriy qilish. | tadbirkorlar uchun seminarlar tashkil etish. | davomida | | |